


USHBU SONDA:

TEZKORLIK — ULARNING SHIORI



7

«...ILTIMOS,
QUTQARING!»



11

XONOBODDA
«DUNYO SADOLARI»



24

Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!



Postda На посту

O'zbekiston
Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi
nashri

2025-yil 21-avgust
payshanba

№ 34 (4728)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

ХАЙРЛИ ИШЛАРГА БОШ-ҚОШ



20

HAFTA YANGILIKLARI

Toshkent shahrida **Olimpiya shaharchasi qurib bitkazildi**. Shaharchada stadion, suv sport saroyi, velodrom, jamoaviy va yakkakurash sport majmualari qurildi. Undagi 5 ta asosiy sport majmuasi Xalqaro Olimpiya qo'mitasining barcha talablariga javob beradi. Shaharcha markazida 12 ming o'rinli stadion joylashgan. Xalqaro turnirlar paytida bu yerda tantanali marosimlar tashkil etiladi.

18-avgust kuni poytaxtimizdagi «Yangi O'zbekiston» bog'ida o'tkazilgan yirik tadbirida 1946 nafar iste'dodli yosh muhandis bir vaqtning o'zida 1946 ta kichik robotni yig'ib, **O'zbekiston nomini «Ginnes rekordlar kitobi» sahifalariga yozdirdi**. Tadbir katta bayramona ruhda o'tdi hamda O'zbekiston yoshlari uchun texnologiya va innovatsiyalar sohasida yangi marralarni ochib berdi.

2025-yil 1-sentabrdan **O'zbekistonda mehnatni nazorat qilish mexanizmiga o'zgartirishlar kiritiladi**. Xususan, davlat mehnat inspektorlari tomonidan o'tkaziladigan tekshiruvlar to'g'risida vakolatli organlarni oldindan xabardor qilish majburiyati bekor qilinadi. Bundan tashqari, tadbirkorlarga xavf-xatarlarni tahlil qilish tizimi bo'yicha Mehnat inspeksiyasi tomonidan tekshiruvlarni boshlash uchun 10 kunlik ogohlantirish talabi tatbiq etilmaydi.

Ota-onalarga ta'lim kontrakti uchun **soliq imtiyozini qo'llashda farzandning yosh chegarasi bekor bo'ldi**. Ta'lim olish uchun yo'naltiriladigan mablag'larga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozni qo'llash tartibi o'zgardi. Bu haqda Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qo'mitasi qarori qabul qilindi.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

«TAKLIF»NI RAD ETDI, AMMO...

Xorazm viloyati ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan giyohvandlik vositalari hamda psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasiga qarshi bir qator tezkor tadbirlar amalga oshirilmoqda.



Joriy yilning 15-aprel kuni o'tkazilgan navbatdagi tezkor tadbirda Qo'shko'pir tumanida yashovchi M.A.ning xonadoni xolislari ishtirokida ko'zdan kechirildi. Tintuv davomida xonadon sohibi 747 gramm opiy giyohvandlik moddasini kelgusida sotish maqsadida saqlab qo'yganligi aniqlandi. Ushbu giyohvandlik vositalari ashvoviy dalil tariqasida hujjatlashtirib olindi va gumonlanuvchi shaxsга nisbatan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan jinoyat ishi qo'zg'atildi.

Urganch tumani IIB huzuridagi Tergov guruhi tomonidan olib borilayotgan dastlabki surishtiruv harakatlari davomida gumonlanuvchining tanishi qo'shko'pirlik S.B. katta tergovchi, mayor Azamat Sultonov bilan uchrashib, tergov ishini «bosdi-bosdi» qilish evaziga unga 20 ming AQSH dollari berishini aytadi. Tergovchi

unga bu xatti-harakati qonunga xilof ekanligini tushuntirib, «taklif»ni rad etadi. Ammo S.B. do'stini muqarrar jazodan qutqarib qolish maqsadida tergovchini pora olishdek og'ir jinoyatga undashda davom etadi.

Tushuntirishlar besamar ketgach, kasbiga va qasamyodiga sodiq qolgan mayor Azamat Sultonov viloyat IIB boshlig'iga holat yuzasidan murojaat qiladi. Huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar xodimlari bilan hamkorlikda o'tkazilgan tezkor tadbirda S.B. 20 ming AQSH dollarini tergovchiga pora tariqasida bergan vaqtida ashvoviy dalillar bilan qo'lga olindi.

Shu tariqa giyohvandlik bilan shug'ullangan do'stini pora berish evaziga muqarrar jazodan qutqarib qolmoqchi bo'lgan S.B.ning o'zi jinoyat javobgarlikka tortildi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

GIYOHVANDLIK – UMR ZAVOLI

Mamlakatimizda giyohvandlikka qarshi kurashish borasida qator chora-tadbirlar ko'rib, sezilarli natijalarga erishilganligiga qaramasdan, bu muammo dolzarbligicha qolmoqda. Toshkent viloyati IIBB hamda DXX hududiy boshqarmasi xodimlari hamkorligida o'tkazilgan nazorat tadbirlarida giyohvandlik moddalarini Toshkent shahriga olib ketayotgan va xonadonida saqlagan shaxslar qo'lga olindi.

ASHVOVY DALILLAR BILAN

Xususan, Ohangaron tumani «Chinor» YPX maskanida Farg'ona – Toshkent yo'nalishida harakatlanib kelayotgan Sharof G'oziev (ism-sharifi o'zgartirildi) boshqaruvidagi avtotransport vositasi to'xtatib tekshirilganda, mashina salonida 3 ta o'ramda sotish uchun

olindi. Ushbu shaxslar qora bozorda taxminiy qiymati 50 million so'mga teng bo'lgan mazkur moddani o'tkazish maqsadida saqlab kelganliklari aniqlangan.

Ushbu holatlar yuzasidan ushlangan shaxslarga nisbatan jinoyat kodeksining tegishli moddalari bilan j



Nurafshon shahrida o'tkazilgan tadbirda esa «Obod turmush» mahallasi-da yashovchi fuqaro gashish giyohvandlik vositalarini yashash xonadonidagi avtomobilning eski shinalari orasiga yashirib qo'yganligi aniqlandi.

Chirchiq shahrida o'tkazilgan tadbirda Farg'ona viloyatida yashovchi, 18–21 yoshdagi ikki shaxs o'zlariga tegishli «Nexia» avtomashinasi salonida 416 dona kuchli ta'sir qiluvchi dori vositasi hamda 10 gr gashish giyohvandlik moddasini olib ketayotgan vaqtida ashvoviy dalillar bilan qo'lga

noyat ishi qo'zg'atilib, tergov harakatlari olib borilmoqda. Darhaqiqat, giyohvandlik umr zavoli hisoblanadi. Uni tag-tomiri bilan sug'urib tashlash uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rish, o'z navbatida, giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olish muhim ahamiyatga egadir.

Abror POYONOV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent viloyati.

O'QUV-AMALIY SEMINAR

TERGOV XIZMATI: MUAMMO VA YECHIMLAR

So'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, tergov va sud jarayonlarida adolatni ta'minlash masalasi tobora ustuvor ahamiyat kasb etyapti.



Joriy yilning 5-mart kuni Davlat rahbari tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish Milliy Kengashining yig'ilishida korrupsiyaga qarshi kurashish va tergov sifatini oshirish bo'yicha bir qator topshiriqlar berilgan edi.

Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Bosh prokurorning birinchi o'rinbosi Bahridin Valiyev hamda Ichki ishlar vaziri o'rinbosi, Tergov departamenti rahbari, polkovnik Ramazon Ashrapov ishtirokidagi Farg'ona viloyatidagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tergovchilari uchun o'quv-amaliy seminar tashkil etildi.

Unda Bosh prokuratura va Ichki ishlar vazirligi rahbariyati, Huquqni muhofaza qilish akademiyasi xodimlari,

Farg'ona viloyat prokuraturasi mas'ullari hamda tergovchilari, Departamentning viloyat boshqarmasi tergovchilari, viloyat IIB rahbariyati, tergovchilari, ekspert-kriminalistika markazi xodimlari, Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi viloyat filiali mutaxassislari ishtirok etishdi.

Seminarda malakali mutaxassis va ekspertlarning qator ma'ruzalari eshitildi.

Jumladan, «Sudga oid biologik va DNK ekspertizalari bo'yicha yo'l qo'yilayotgan xatolar», «Pora olish jinoyati bo'yicha hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi», «Giyohvandlik vositalari bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilish jarayonlari: muammo va yechimlar», «Yo'l transport bilan bog'liq hodisa-

larni ko'zdan kechirish jarayonlari» kabi bir necha mavzulardagi ma'ruzalar ishtirokchilarning bilim va malakasini oshirishga xizmat qildi.

Shuningdek, seminar davomida amaliy mashg'ulotlar ham olib borildi. Xususan, yo'l-transport hodisasi sodir bo'lgan voqea joyini ko'zdan kechirish va hujjatlashtirish jarayonlari amaliy ko'rinishda namoyish etilib, mahorat darsi olib borildi. Ishtirokchilar o'rtasida mavzu yuzasidan fikr-mulohazalar almashildi, amaliyotda uchrayotgan ayrim muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar o'rtaga tashlandi.

Seminar yakunida jinoyatlarni tergov qilishda o'rnak va namuna bo'layotgan, yuksak kasbiy mahoratini namoyon etayotgan bir guruh prokuratura va ichki ishlar organlarining tergovchilari munosib taqdirlandi.

Bir so'z bilan aytganda, bu kabi o'quv seminarlari tergov sohasi xodimlarining kasbiy mahoratini yuksaltirish, ular o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini mustahkamlash bilan birga, jamiyatimizda adolat va shaffoflik mezonlarini yuqori bosqichga olib chiqishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



«INOQOBOD»NING AHIL AHLI

Mirobod tumani «Inoqobod» mahallasiga borganimizda profilaktika inspektori, mayor Azizjon Soburov, mahalla fuqarolar yig'ini raisi Nursuluv Sabikova va faollar bilan birgalikda kecha tunda ko'p qavatli uydagi xonadoni derazasidan ko'chaga chiqindi uloqtirgan 3 nafar fuqaro qilmishini muhokama qilishayotgan ekan.

– Baraka topgurlar, shunday chiroyli yangi uylar mahallamizni bezab turibdi. Ko'rgan odamning havasi keladi. Qaniydi, menam shunday uylarda yashasam, deydi qancha. Siz bo'lsa, uyingizdan 30-40 qadam naridagi chiqindixonaga borishga erinib, chiqindini oynadan uloqtirayapsiz! Uyalmasizlarmi? Bir-ikki marta ogohlantirdik. Insofga kelar, dedik. Qaydam, mana, kamera yana sizlarni qayd etib turibdi. Endi qonuniy chora ko'ramiz, Aziz aka, – deb raisa opa profilaktika inspektoriga yuzlandi.

Darhaqiqat, bugun azim shaharning barcha mahallalarida maxsus chiqindixonalar barpo etilgan. Ammo, afsuski, ayrim mahallalarda bunday ko'ngilni xijil qiluvchi holatlar uchrab turibdi. Mahallada 1151 ta yakka tartibdagi xonadonda 2125 ta oila istiqomat qilmoqda. Shuningdek, 12 ta ko'p qavatli uyning 1048 ta xonadonida 1121 ta oila istiqomat qilar ekan. Shulardan ba'zilar ko'chaga chiqindi tashlab, ifloslantirgani uchun ular qilmishi muhokamasining ustidan chiqdik. Hovlilarda esa bunday muammolar qayd etilmagan.



Mahallada yoshlar, xotin-qizlar, muqaddam sudlangan va ma'muriy nazoratda turgan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilmagan. Ammo bir nafar chet el fuqarosi tomonidan 2 ta talonchilik jinoyatiga qo'l urilgan bo'lsa-da, u o'z vaqtida fosh etilgan.

Shu yilning 2-yanvar kuni ushbu 136-sonli huquq-tartibot maskaniga 28 yoshli ayol M.G. murojaat qilib, kech soat 19:10 larda mahalla hududidagi 82-sonli ko'p qavatli uy oldida noma'lum shaxs

uning «Redmi A1+» rusumli uyali aloqa vositasini kuch ishlatib tortib olib, voqea joyidan yashiringani haqida aytib, unga nisbatan chora ko'rishni so'raydi.

Profilaktika inspektori zudlik bilan barcha ko'chadagi videokameralar kuzatuvini o'rganib, shubha uyg'otgan noma'lum kishini ajratib oladi. Tezkor qidiruvda noma'lum shaxsning tojikistonlik ekanligi aniqlanadi va u chegaradan o'tib, qochib ketmasligi uchun barcha chegara

postlariga maxsus xabarnoma tarqatiladi.

Chegara postida qo'lga olingan talonchi bilan olib borilgan tezkor-surishtiruv ishlari chog'ida uning mahalladagi yana bir qizchani qimmatbaho uyali aloqa vositasini zo'rlik bilan tortib olib ketgani ham aniqlanib, to'plangan hujjatlar qonuniy chora ko'rish uchun sudga yuboriladi.

– Yana bir uyali telefon va 1 ta velosiped o'g'irlagan 2 nafar shaxs ham tezda qo'lga olindi. Bitta oila turmush doirasida sodir etilgan, aka-uka o'rtasidagi nizo tufayli kelib chiqqan tanjarohati yetkazish holati bo'yicha ham to'plangan hujjatlar sudga chiqarildi, – deydi mayor A.Soburov. – Mahallamiz o'tgan yili «qizil» toifada edi. Bu yil mahalla yettiligi bilan hamkorlikda qilingan sa'y-harakatlar tufayli o'tgan yilga nisbatan jinoyatlar kamayib, «sariq toifa»ga o'tdik. Yil yakunida «yashil» toifaga o'tishni rejalashtirganmiz.

Qolaversa, hamkorlikdagi ishlar doimo o'z samarasini bergan. Shu bois, mahalla tinchligi, obodligi va ozodaligi yo'lida birgalikda kurashayotgan inoqobodliklar ham keyingi yilda «yashil» toifadagi mahallalar qatoriga qo'shiladi, – degan umiddamiz. Chunki ularning o'zaro ahilligi va hamjihatligi inoqligini bezab turibdi.

Shuhrat RO'ZIYEV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

HALOLLIKNI SHIOR QILGAN XODIMLAR

IIV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7533-harbiy qism jazoni ijro etish koloniyasini qo'riqlash va nazorat qilish bo'yicha 4-batalyonining 3-toifali nazoratchisi, oddiy askar Salohiddin Dehqonov JIED to'rtinchi mintaqaviy hudud 10-sonli jazoni ijro etish koloniyasida mahkumlar bilan muloqot qilib, ularga qonunbuzarliklarga yo'l qo'ymaslik, taqiqlangan buyumlarni saqlamaslik bo'yicha tushuntirish-targ'ibot ishlari olib borarkan, mahkum M.T.ning xatti-harakatlari unda shubha uyg'otdi.

Shubhalar bejiz emas ekan. Muloqot davomida mahkum M.T. qarindoshlaridan uyali aloqa vositasini olib kirib berish evaziga unga 1000 AQSH dollari miqdorida pora taklif qiladi. Harbiy xizmatchi uning bu ishi jinoyat ekanligini har qancha tushuntirsa-da, mahkum ahdidan qaytmaydi. Natijada oddiy askar bu haqda rahbariyat nomi-

SODIQLIK SAMARASI

Jazoni ijro etish koloniyasida mahkumlar bilan ishlash harbiy xizmatchidan o'ta ziyrak va hushyor bo'lishni taqozo etadi. Ayniqsa, navbatchilik yoki qo'riqchilikka turganda, bu xislatlar asqatishi aniq.



ga bildirgi bilan murojaat etadi.

IIV SHXBB JIED bo'yicha bo'limi va mas'ul organlar xodimlari bilan hamkor-

likda joriy yilning 9-may kuni o'tkazilgan tezkor tadbirida mahkum M.T. oddiy askar Salohiddin Dehqonovga 1000 AQSH

dollari miqdoridagi pullarni pora tariqasida berayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo'lga olingan va unga nisbatan Ji-

nayat kodeksining tegishli moddasi bilan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Ichki ishlar organlarida uch yildan ortiq xizmat qilayotgan oddiy askar Salohiddin Dehqonov berilgan topshiriqlarni vaqtida va sifatli bajaradigan bu harbiy xizmatchi tirishqoqligi, o'z ustida ishlash xislatlari bilan hamkasblari e'tiborini qozongan.

Sharofiddin ota va Mo'tabar ayaning uch nafar farzandi orasida to'ng'ichi bo'lgan Salohiddin Dehqonov turmush o'rtog'i Muxlisaxon bilan ikki nafar farzandni tarbiyalab kelmoqda.

O'z muxbirimiz.

Qashqadaryo viloyati.





Ровесники независимости

БЫТЬ ПОЛЕЗНЫМ СТРАНЕ И ЛЮДЯМ

Приближается главный государственный праздник – 34-я годовщина независимости Республики Узбекистан. В стране царит приподнятая атмосфера. На ближайшие выходные намечен всенародный благотворительный хашар под девизом «Благоустроенная и уютная махалля – украшение страны», что в полной мере соответствует традициям нашего народа.

Для меня День независимости – особенный, ведь мне посчастливилось быть ровесником судьбоносного события в истории Узбекистана. Чувство сопричастности к великим переменам я испытал еще со школьной скамьи, будучи учеником общеобразовательной школы № 38 Чимбайского района.

Мой отец, Камилджан Уразымбетов, трудился в сфере связи. Когда поделился с ним желанием связать судьбу с органами внутренних дел, он поддержал мой выбор. Помимо обязательных уроков, я углублял свои знания на дополнительных занятиях, которые проводила наша учительница Ольга Залицаева.

В 2006 году, окончив 9 классов, подал заявление в Чимбайский РОВД с просьбой направить меня в республиканский лицей имени генерал-майора Гуломжона Зокирова в Ферганской области. В 2008 году окончил его с отличием.

С волнением и надеждой я подал документы для поступления в высшее учебное заведение МВД Российской Федерации. Прошел конкурс и был зачислен в Санкт-Петербургский уни-



верситет МВД России. Здесь на факультете подготовки иностранных специалистов вместе со мной учились юноши и девушки из Монголии, Армении, Азербайджана, Афганистана, Таджикистана, Кыргызстана, Молдовы и других стран.

Следуя советам отца и наставников, старательно учился,

строго соблюдал дисциплину и в итоге был удостоен Почетной грамоты, которую вручил лично ректор университета. Пять лет, проведенных в городе на Неве, стали для меня интересным и насыщенным временем, хотя я очень скучал по Родине.

В 2013 году, завершив обучение и получив погоны лейте-

нанта, вернулся домой. Службу начал в должности инспектора кадрового отдела Управления охраны при МВД Республики Каракалпакстан. Впоследствии работал инспектором, старшим инспектором-психологом Управления кадров министерства. За образцовое выполнение служебных обязанностей досрочно был удостоен звания майора. В настоящее время продолжаю службу в подразделении оперативного розыска МВД Республики Каракалпакстан.

Независимость позволила нашему народу самостоятельно определять судьбу страны. Для молодого поколения открылись широкие горизонты – учеба за рубежом, обретение востребованных профессий. Особенно ощутимы меры государственной поддержки молодежи, предпринимаемые в последние годы. Реализуются масштабные реформы, направленные на развитие человеческого капитала и раскрытие потенциала каждого соотечественника.

Стабильность, мир и межнациональное согласие, царящие в Узбекистане, служат прочной основой поступательного развития.

Атабек УРАЗЫМБЕТОВ,
подполковник.
Республика Каракалпакстан.

■ Сурхандарьинская область

ИНТЕЛЛЕКТ НА СТРАЖЕ

Сотрудники Ангорского РОВД посетили информационно-библиотечный центр.

Цель акции – повысить уровень духовного развития сотрудников, а также показать, что служба в правоохранительных ор-

ганах требует не только физической подготовки, но и интеллектуальной.

Во время экскурсии сотрудники ознакоми-

лись с богатым книжным фондом и современными информационными ресурсами. Они отметили, что чтение является



одним из лучших способов расширить кругозор, развить аналитическое мышление и снять стресс, что особенно важно для людей, чья работа сопряжена с постоянным напряжением. Такие мероприятия способствуют укреплению связей между

сотрудниками, их всестороннему развитию. Это еще один шаг в реализации государственной политики, направленной на повышение культурного и образовательного уровня населения, в том числе и тех, кто стоит на страже правопорядка.

Соб. корр.



MUSTAQILLIK – MENING TAQDIRIMDA

KASBGA SADOQAT BILAN

Istiqlol yanglig' tarixiy voqea hozirgi kungacha yurtdoshlarimizning qalbida o'z uyi, Vatani taqdiriga egalik hissining ustuvorligi, eliga, yurtiga, mustahkam qo'rg'oniga muhabbat, sadoqat tuyg'ularining tantanasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mamlakatimizda barcha sohalar-da amalga oshirilayotgan islohotlar samarasi o'laroq, ichki ishlar organlarida ham xodimlarga ancha qulayliklar yaratildi, zamonaviy texnika va jihozlar bilan ta'minlandi. Bular hammasi yurtimiz tinchligi va xalqimiz farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, aholi turmush darajasini yuksaltirish bo'yicha uzluksiz tadbirlar amalga oshirilmoqda: qurilish va obodonchilik ishlari tufayli shahar-qishloqlarimiz yanada go'zallashyapti.

Qorako'l tumani IIB JXX HPB Voyaga yetmaganlar va yoshlar masalalari bo'yicha katta inspektori, kapitan Botir Bozorqulov ham ana shunday yosh va fidoyi xodimlardan biridir.

1991-yil 9-oktyabrda tug'ilgan lavhamiz qahramoni maktabda o'qib yurgan kezlari ichki ishlar tizimida ishlash xayoliga ham kelmagan edi. U ko'proq matematika faniga qiziqar, xususan, tenglamalar yechishga juda ishqiboz edi. Shu bois qo'shimcha saboqlar ola boshladi.

– Toshkent moliya institutida tahsil olayotgan paytim o'rtoqlarimdan birini tunab ketishdi. Ichki ishlar organlari xodimlari voqea joyiga yetib kelishib, ko'p o'tmay gumondorni aniqlashdi. Menga ularning tezkorligi va xushmuomalaligi juda ma'qul keldi. Ota-onam taklifimni qo'llashdi. Shu bois diplomni olgach, Toshkentda qoldim va IIV Akademiyasi Serjantlar tarkibini tayyorlash oliy kurslarida o'qishni davom ettirdim, – deydi kapitan Botir Bozorqulov.

Lavhamiz qahramoni xizmat faoliyatini viloyat IIB Vaqtincha saqlash hibsonasi navbatchisi lavozimidan boshladi. Kasb sirlarini yetuk mutaxassislardan o'zlashtirib, tajribasini oshirdi. Keyinchalik turli lavozimlarda xizmat olib bordi.

Xizmat vazifasidan kelib chiqib, tuman hududidagi o'quv muassasalari, yoshlarga aloqador jamoat tashkilotlari, hokimlik hamda ichki ishlar organlarining boshqa sohaviy xizmatlari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'ygan. Bu esa voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni jilovlashda, ularning barvaqt oldini olishda qo'l kelmoqda. O'tgan oylar davomida voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilmadi. Ayni paytda 8 nafar voyaga yetmagan shaxs profilaktik hisobda turadi. Ularga maktab va



mahallalardan murabbiylar birlashtirilib, muntazam ravishda nazorat etib turilmoqda. Shuningdek, yoshlarning bandligini ta'minlash maqsadida mehnat yarmakalari o'tkazilishini tashkillashtirmoqda. Hozirgi ta'til davrida, ayniqsa, «Xavfsiz va sog'lom yurt» maxsus profilaktik tadbirining ikkinchi bosqichida turli ko'ngilochar, ma'rifiy va madaniy hamda profilaktik tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Qisqasi, xalq xizmatida bo'lib, el-yurtning ishonchini, hurmat-e'tiborini qozonish har bir inson uchun chinakam baxt. Kapitan Botir Bozorqulov ham o'zining halol mehnati bilan ana shunday yuksak ishonchga sazovor bo'lmoqda.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

SURATLI LAVHALAR

ZAHMATLI XIZMAT SHUNQORLARI

Toshkent shahar IIBB YHXB Yo'l-patrul xizmati brigadasi xodimlari poytaxtimiz yo'llarida harakatlarni tartibga solish, avtohalokatlarning oldini olish va kamaytirish maqsadida tun-u kun faoliyat ko'rsatishmoqda. Ayniqsa, 2-batalyon 6-safarbar guruhi xodimlarining bu boradagi xizmati alohida e'tirofga munosib.



6-safarbar guruhi komandiri, mayor Abbas-ali Aliyev(chapda), katta inspektor, kapitan Dilshod Kuralov «Nukus – Abdulla Qahhor» chorrahasida.

– Xodimlarimiz asosan Yakkasaroy tumanida xizmat olib borishadi, – deydi 6-safarbar guruhi komandiri mayor Abbas-ali Aliyev. – O'tgan yil va joriy yilning o'tgan davrida xizmat hududimizda yo'l-transport hodisalari sonini keskin kamaytirishga erishdik. Boisi, shaxsiy tarkibimiz xizmat burchiga sadoqatli, fidoyi xodimlardan tashkil topgan. Ular xizmat vazifalarini muvaffaqiyatli ado etishlarida zamonaviy planshetlar va bodi-kameralar juda asqatmoqda. Umuman, namunali xizmat olib borish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Shu o'rinda, guruh katta inspektori kapitan Dilshod Kuralov, inspektorlar – serjant Islom Abdullayev, kichik serjant Javohir Gulovlar barcha hamkasblariga o'rnak bo'lib kelayotganini ta'kidlash joiz.

Abu KENJAYEV,
fotomuxbir.

Toshkent shahri.



Kichik serjant Javohir Gulov Nukus ko'chasida xizmat o'tamoqda.



Serjant Islom Abdullayev «Bobur – Nukus» chorrahasida transport qatnovini tartibga solmoqda.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.instagram.com/postda_uz

▶ MUSTAQILLIK TENGDOSHLARI

ISTIQLOL BERGAN BAXT

Mustaqillik tengdoshlari bugun turli sohalarda faoliyat yuritib, Vatanimiz taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shmoqda. Ular Istiqlol bilan birga o'sdi, kamol topdi. Shundaylardan biri katta leytenant Umidjon Nazarovdir. U hozirda Qiziltepa tumani IIB JXX HPB profilaktika inspektori lavozimida xizmat qiladi. Lavhamiz qahramoni 4 mingdan ziyod aholi istiqomat qilayotgan «Gulzor» mahallasi tinchlik-osoyishtaligini ta'minlashga mas'ul.

– Tug'ilgan kunimda o'ziga xos ramziy ma'no bor. Men davlatimiz bayrog'i qabul qilingan sanada dunyoga kelganman. Shu bois taqdirim Vatan taqdiri bilan chambarchas bog'langanini yurakdan his etaman, bundan faxrlanaman, – deydi katta leytenant Umidjon Nazarov.

U bolaligidanoq odamlarga yordam berishni odat qilgan. Oliy ta'lim muassasasini tugatib, bir muddat maktab yoshlariga yetakchilik qildi. So'ng profilaktika inspektori yordamchisi vazifasida ishladi. Va nihoyat orzusi ushalib,

ichki ishlar organi xodimi bo'ldi. Umidjon mahallada muammosi borlarga yelkadosh bo'lishni o'zining burchi deb biladi.

– O'zim tug'ilib o'sgan zaminda xizmat qilaman. Ota-onam, oila a'zolarim yaqinimda. Xotirjamlikda o'z vazifamni ado etyapman. Kasbimni yaxshi ko'raman. Insonga bundan ortiqroq baxt bo'lmasa kerak, – deydi u.

Umidjon mahalla yettiligining boshqa a'zolari bilan birga hududda huquq-tartibotni mustahkamlashga, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishga munosib hissa qo'shib kelyapti. Xizmatga bo'lgan mas'uliyati, xushmuomalaligi, samimiyligi bilan aholi orasida hurmat qozongan. Uning tashabbusi bilan mahallada bir qator ijtimoiy loyihalar amalga oshirildi. Jumladan, yoshlar o'rtasida sport musobaqalari, axloqiy-tarbiyaviy mavzularda uchrashuvlar o'tkazildi.

Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.

Navoiy viloyati.



▶ KASB FIDOYISI

EL MEHRIGA SAZOVOR

Uchko'prikdagi «Tinchlik» MFY tuman markazida joylashgan eng gavjum va serqatnov hudud hisoblansa-da, so'nggi yillarda mahallada jinoyat va huquqbuzarliklar salmog'i sezilarli kamayib, osoyishta va xavfsiz muhit yuzaga keldi. Buning sabablari talaygina. Eng asosiysi esa – mahalla profilaktika inspektori, kapitan Akmaljon Kushvakov xalq bilan hamnafas xizmat olib bormoqda.



Lavhamiz qahramoni 2012-yilda Toshkent avtomobil yo'llari institutini tamomlagach, ichki ishlar organlari safiga xizmatga kirishni o'z oldiga maqsad qilib, sinovlarda ishtirok etadi. 2013-yilda uning orzulari ijobat bo'lib, PPXga qabul qilindi.

Jamoatchilik bilan ishlashdagi faolligi va tajribasi inobatga olinib, 2017-yilda profilaktika xizmatiga o'tka-

zilgandan buyon Uchko'prik tumanida xalq osoyishtaligi yo'lida xizmatni munosib davom ettirib kelmoqda.

– Mahallamiz hududida bozor, oshxona va kafelar, xususiy klinikalar, poliklinikalar, davlat idoralari joylashgan bo'lib, har kuni minglab fuqarolar kelib-ketishadi, – deydi profilaktika inspektori. – Keyingi yillarda raqamlashtirishga jiddiy e'tibor qaratilib, hududga 70 ga yaqin kuzatuv

kameralari o'rnatdik. Asosiy kirish yo'llari va gavjum joylardagi kameralar esa xizmat xonamga integratsiya qilingan. Bundan tashqari, mahalla yettiligi bilan birgalikda aholi xonadonlarida, ko'cha va jamoat joylarida targ'ibot-tashviqot ishlarini muntazam olib boramiz. Shu bois jinoyatchilik jilovlanib, mahallamiz «yashil» toifaga kiradi.

Inspektorning qayd etishicha, mahallada 3 ta

janjalkash oila, 11 nafar profilaktik hisobda turgan, 4 nafar spirtli ichimlikka ruju qo'ygan, 1 nafar ma'muriy nazorat ostidagi va 16 nafar probatsiya hisobidagi shaxs yashaydi. Ushbu toifadagi shaxslar bilan kunlik nazorat va profilaktik ishlar to'g'ri yo'lga qo'yilgan, inspektor ularning yashash tarzini tez-tez «xonadonbay» usulida o'rganib turadi.

Jonsarak posbon mahallasida tartib-osoyishtalikni saqlash bilan birga, tuman hududida sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishda ham doim faol. Masalan, yaqinda xizmat hududiga yaqin, shundoqqina qo'shni mahallada o'g'irlik jinoyati sodir etildi. Uchko'prik tumani «Puchug'oy» MFYda yashovchi fuqaroga tegishli «Mercedes-Benz» rusumli avtomashina ochiq qolgandan foydalangan noma'lum shaxs uning salonidan 7800 AQSH dollari va 2500000 so'm miqdoridagi pullarni o'g'irlab, voqea joyidan yashirinadi.

Mazkur holat yuzasidan noma'lum shaxsga nisbatan Uchko'prik tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi tomonidan jinoyat ishi qo'zg'atilib, surishtiruv harakatlari olib borilayotganida, kapitan Akmaljon Kushvakovning tajribasi qo'l keldi. Uning «Oltin vodi» mahallasida yashovchi,

2007-yilda tug'ilgan, avvallari ham ochiq qolgan avtomashinalardan o'g'irlik jinoyatini sodir etgan va muqaddam sudlanib, hozirda ozodlikni cheklash jazosini o'tayotgan N.M. shu atrofda aylanib yurganiga kuzatuv kameralari orqali ko'zi tushgandi. Darhol, jinoyat qidiruv bo'limidagi hamkasblariga ana shu yigit haqida tezkor xabar berdi. Shundan so'ng N.M. ushlanib, dastlabki surishtiruv harakatlari olib borilganida, o'g'irlik aynan u tomonidan sodir etilgani oydinlashdi.

Kapitan Akmaljon Kushvakov ziyoli oilada kamolga yetgan. Otasi Tursunali Kushvakov, validasi Nasiba Xo'jayeva Rishton tumani-ning Yoyilma qishlog'idagi 21-maktabda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishgan. Lavhamiz qahramoni sharaflil kasbni tanlashida ota-onasining hissasi katta ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Bugun el xizmatiga kamrabasta Akmaljon turmush o'rtog'i va 3 nafar farzandi bilan «Tinchlik»dagi xizmat uyi- da istiqomat qilmoqda. Mahalla ahli va qo'ni-qo'shnilar bilan ahil-inoq, yelkadosh bo'lib yashayotgan kasb fidoyisi xalqning chinakam mehriga sazovordir.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.

Farg'ona viloyati.



FIDOYI XODIMLAR

KO'NGLI OCHIQLARNING YO'LI OCHIQLAR

– Har kuni idoramizga kelgan fuqarolar eng birinchi bizga ro'baro' bo'ladi, – deydi Bektemir tumani IIOFMB Ta'minlash va xizmat ko'rsatish bo'linmalari qo'riqlash guruhi xodimi, safdor Shohruxjon Abdurayimov. – Bu o'z-o'zidan zimmamizdagi vazifalarni belgilangan tartib-qoidalar asosida mas'uliyat bilan bajarishni taqozo etadi. Biror zururat yuzasidan kelgan fuqarolar bilan tezda muloqotga kirishib, ularni tegishli sohaviy xizmatlarga yo'naltiramiz. Ularning kayfiyati ham turlicha bo'ladi, albatta. Kezi kelganda aytishim kerak, kasbimni juda yaxshi ko'raman.

Aslida Shohruxjonning qalbida ichki ishlar organi xodimi bo'lishdek maqsad uyg'onishiga akasi, Milliy gvardiya xodimi Farruxbek Abdurayimov sababchi bo'lgan. Dastlab u akasining har qanday vaziyatda davlat xizmatchisi sifatida mas'uliyatni unutmashligini kuza-tib: «Men ham uddalay olamanmi yoki eplay olmaymanmi?» – deya biroz ikkilangan. Biroq osoyishtalik posbonlarining bir yelkasida sharaf, ikkinchisida mas'uliyat turishini tushunib yetgach, o'ziga ishonch hosil qildi. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, ilk xizmatini Bektemir tumani IIOFMB Patrul post xizmatida boshlagan.

– O'zim shifokor, ayolim pedagog, – deydi Rayimberdi Hamdamov. – To'rt nafar o'g'lim bor.

Xalqimizda «Yigit kishiga qirq hunar oz», deb bejiz aytilmaydi. Shu maqolga amal qilib, farzandlarimizda yoshligidan kasb-hunarga mehr uyg'otganmiz. Masalan, o'g'lim Shohruxjon 8-sinfligidanoq avtomashina ustasiga shogird tushib, hunar o'rgangan. Hozir har qanday rusumdagi avtomashinani ta'mirlay oladi. Farzandimning el-u yurtga nafi tegayotganidan xursandman.

Safdor Shohruxjon Abdurayimov sohaning o'ziga xos jihatlari ustoz katta serjant Sherzod Po'latovdan o'rgangan. U zimmasiga yuklatilgan vazifalarni to'kis bajarishi, mehnatsevarligi bilan rahbariyati, kerakli vaziyatlarda yordamini ayamashligi, insoniy fazilat-lari bilan hamkasblari ishonchini qozongan. Aytgancha, u hozirda



Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining sirtqi bo'limi 4-bosqich talabasi hamdir. Oila qo'rg'onida ayoli Nozimaxon bilan qizalog'i Sabinani ulg'aytirishmoqda.

Tilimizda «Ko'ngli ochiqning yo'li ochiq» hikmati tez-tez aylanadi. Lavhamiz qahramoni bilan suhbatlashish asnosida, ko'ngli

toza, samimiy inson ekanligiga ishonchimiz komil bo'ldi. Uning xizmat, hayot yo'llaridagi fidoyiligi jamiyatda shaxs sifatidagi qadri va qaddini yuksalishida muhim omil ekanligiga shubhamiz yo'q.

Gulnoza TURG'UNBOYEVA,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.

XIZMATLARDA

Telefon jiringladi. «Iltimos, tez kelinglar! Qo'shnim janjal ko'taryapti!» – go'shakdan ayol kishining najot so'ragan tashvishli ovozi eshitildi. Bir necha daqiqa ichida tergov-tezkor guruhi xodimlari aytilgan manzilga yetib borib, qaltis vaziyatni bartaraf etishdi, to'polonchi fuqaro bilan qonun doirasida tushuntirish ishlari olib borildi.

«102» xizmati xodimlari o'zlarining xushmuomalaligi, tezkorligi, kasb mahorati bilan aholining ishonchini qozonishgan. Safdor Zoyir Abduvahobov Samarqand viloyati IIB Tashkiliy boshqarmasi Tezkor boshqaruv markazi «102» xizmati kichik mutaxassisi sifatida 2 yildan buyon ishlab keladi. Uning uchun har galgi navbatchilik yangi sinov demakdir.

Ma'lumot uchun: 2025-yilning 6 oyi davomida mazkur xizmatga fuqarolar-dan jami 202589 ta murojaat kelib tushgan. Shundan 48214 tasi huquqiy maslahat so'rash bilan bog'liq, 154954 ta holatda esa jinoyat va hodisalar haqida xabar berilgan.

TEZKORLIK – ULARNING SHIORI

Sokin tun. Shahar ahli shirin uyquda. Ammo Samarqand viloyati IIB Tashkiliy boshqarmasi Tezkor boshqaruv markazi «102» xizmati xodimlari bedor. Ular uchun bu odatiy hol. Doimo hushyor, burchiga sodiq osoyishtalik posbonlari xalq xizmatida – boshqalarning oromini qo'riqlayapti.

2025-yilda «102» qisqa raqamiga kelib tushgan og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyat, hodisalar haqidagi 3132 ta xabar yuzasidan jinoyatlar-



mayor Said Xubbimov sohaning tajribali xodimlaridan. Safdor Z. Abduvahobov bilmaganlarini undan o'rganadi. Xizmatda tezkorlik bilan guruhlarini voqea joyiga yo'naltirish insonlar hayotini asrash va osoyishtalikni ta'minlashda muhimdir.

Bir kuni Samarqand shahrining «Qorasuv» mavzesidagi ko'p qavatli uylar-

ning biridagi liftida nosozlik yuzaga keldi. Uning ichida qamalib qolgan o'smir «102» raqamiga qo'ng'iroq qildi. Ovozida biroz qo'rquv bor edi. Voqea joyiga PPX naryadi xodimlari yetib borib, muammo bartaraf etildi va bolaning xavotiri aridi.

Ha, «102» raqami ortida faqat telefon qo'ng'iroqlari emas, balki insonlar taqdiri,

xavf-u xatarga to'la lahzalar, tezkorlik bilan qabul qilinadigan qarorlar, har soniyasi g'animat daqiqalar yashirin. Har chaqiriq ortida bir tashvish, bir umid bor. Bugungi kunda mazkur xizmat zamonaviy avtomashinalar, yangi texnologiyalar bilan ta'minlangan. Dispetcherlik markazlari tezkor ma'lumotlarni qabul qilish va yetkazish borasida yuqori samara bilan ishlamoqda.

Ammo eng asosiysi – fidoyi xodimlar. Zero, ular tunlarni tonglarga ulab, el oromini deb o'z oromidan kechib, zimmalaridagi mas'uliyatli vazifalarni sidqidildan bajarishyapti. Har gal «102» xizmati telefoni jiringlaganda, safdor Zoyir Abduvahobov qo'ng'iroqqa javob berar ekan, ich-ichidan xalq koriga yarayotganidan faxrlanib ketadi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.





Женщина в погонах

ОФИЦЕР И МАМА – ДВЕ ГЛАВНЫЕ РОЛИ



В жизни каждого человека есть маяк, который указывает верный путь. Для майора Нодир Шамансуровой, инспектора организационно-диагностической группы отдела профилактики правонарушений УВД города Чирчика, таким маяком стал ее отец – полковник в отставке Абдугаппар Абдусаттарович Шамансуров.

Сотрудница УВД города Чирчика, майор Нодира Шамансурова, воплощает в себе лучшие качества: целеустремленность, профессионализм и преданность семейным ценностям.

Героиня нашего очерка родилась 8 апреля 1974 года в Чирчике. С малых лет она отличалась твердым характером и умением отстаивать свою точку зрения. Отец, долгие годы служивший в органах внутренних дел, преподававший в Академии МВД, профессор, доктор юридических наук, стал для нее главным примером. Именно его путь вдохновил Нодиру на выбор профессии.

В 1998 году, окончив Академию МВД Узбекистана, она приступила к службе. Более 20 лет майор Шамансурова посвятила работе в Управлении миграции и оформления гражданства. С 2024 года занимает нынешнюю должность, где ее напористость и прямолинейность помогают успешно справляться с поставленными задачами.

– Роль папы в моем становлении огромна, –

признается Нодира Абдугаппаровна. – Именно он помогал мне готовиться к поступлению в Академию, поддерживает и направляет на протяжении всей службы.

Несмотря на загруженный график, она успешно совмещает работу с воспитанием троих детей. Старшая дочь Сабина – студентка вуза, а сын Сардорбек и младшая дочь Рушана – пока школьники, но уже радуют маму своими

достижениями. Сардорбек увлекается шахматами и плаванием, а Рушана демонстрирует успехи в художественной школе. Нодира Абдугаппаровна находит время для каждого из них.

Она не теряет оптимизма даже в самых сложных ситуациях, считая, что выход можно найти всегда. Доброжелательность и открытость располагают к себе не только коллег и руководство, но и всех, кто с ней общается.

Ее история – это не только рассказ о профессионализме и преданности делу, но и о силе духа, семейных узах и том, как важно иметь надежную опору в жизни.

Семья майора Нодир Шамансуровой – яркий пример того, как преданность делу, образованность и семейные ценности могут идти рука об руку. В 2023 году их семья была удостоена высокой награды – диплома в номинации «Семья интеллигентов» от имени хокима Ташкентской области. Эта награда стала отражением глубоких традиций, передающихся из поколения в поколение.

Азиза БОХОДИРОВА,
майор.



Социальная защита

НИКТО НЕ ОСТАНЕТСЯ БЕЗ ВНИМАНИЯ

В рамках месячника социальной защиты в Янгирарыкском районе в целях обеспечения занятости женщин и девушек организована ярмарка вакансий.

Она проведена совместными усилиями районного ОВД, отдела поддержки махалли и женщин, Агентства по делам молодежи. Были приглашены женщины, состоящие на профилактическом учете и нуждающиеся в соци-

альной защите. С желающими в установленном порядке заключены трудовые соглашения.

В ходе мероприятия соотечественницы, имеющие жалобы на здоровье, прошли углубленный медосмотр, получили назначения.



– На ярмарку пригласили 19 безработных женщин, состоящих на профилактическом учете, – говорит старший инспектор профилактики по вопросам женщин ОПП СОБ РОВД старший лейтенант Кумуш Эрназарова. – Двое обрели работу, девять – получили направления на прохождение бесплатных курсов обучения профессиям,

восьми женщинам дана юридическая консультация. 15 наших подопечных прошли углубленный медосмотр, приняты меры по их оздоровлению.

Худойберган ЖАББОРОВ,
соб. корр.

Хорезмская область.

На снимках: во время ярмарки вакансий.



FIDOYI HAMKASBLARIMIZ

MUALLIMLAR OILASIDAN CHIQQAN POSBON

Chinakam vatanparvar inson boshqalarga yaxshilik ulashish, xalqi, ona yurti koriga yarashni o'zining burchi deb biladi. Samarqand viloyati Jomboy tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi pasportchisi, safdor Sodiqjon Abduqodirov ana shunday ezgu niyatda xizmat qilib kelmoqda.

– Biz o'qituvchilar oilasimiz. Shu bois Sodiqjonning o'qishiga, odob-axloqiga alohida e'tibor berganmiz. U bolaligidan Beknazar tog'asiga o'xshab ichki ishlar organlarida xizmat qilishni xohlardi. Voyaga yetgach, bu istagini onasi ikkimiz qo'llab-quvvatladi. Mana 10 yildirki, ishonchimizni oqlab kelyapti. U tufayli rahbarlaridan rahmat eshitganimizda, o'g'limiz bilan faxrlanib ketamiz, – deydi lavhamiz qahramonining otasi Rahmatulla G'afforov.

vaqt ajrataman. Ammo yaqinlarim meni to'g'ri tushunishadi, – deya suhbatimizga qo'shiladi safdor S. Abduqodirov.

Har kun o'nlab fuqarolar migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bilan bog'liq masalalarda unga murojaat etishadi. Sodiqjon odamlarning muammolarini hal etganida, ayniqsa, nogironligi bor yoki kekxa fuqarolarning uyiga borib, ularga ID-karta topshirganida, o'zi ham quvonib ketadi.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.
Samarqand viloyati.



NUQTAYI NAZAR

O'ZGARISHNI O'ZIMIZDAN BOSHLASAK...

Kim dunyoni o'zgartirmoqchi bo'lsa, avvalo, o'zini o'zgartirishi kerak. Agar u o'zgalarni yangi dunyoga yetaklamoqchi bo'lsa, nafrat va hasaddan xalos bo'lishi, o'zini mulohazaga chorlashi kerak. Bu chorlov o'zini o'zi tanqid qilish orqali bo'ladi. Yana u xulqini yaxshi fazilatlar bilan bezatib, ichki dunyosini poklashi kerak.

Mulohaza qilish atrofimizda nimalar ro'y berayotganini tushunish va bundan qanday xulosalar chiqarish lozimligini anglab yetishga boshlaydi. U tajriba eshiklarini ochadi, haqiqatni oziqlantiradi, qalbimizning nigohini kuchaytiradi.

Biz bugun tanqid yoqmaydigan, haqiqatni aytsang, aybdorga chiqadigan g'alati bir davrda yashaymiz. Gapni tasodifan o'quvchiga malol keladigan holatdan boshlaganimizga sabablar ko'p. Hamma sharoitlar bisyor, qo'limizni qayerga uzatsak yetadi, hashamlarga, xo-yu havaslarga qattiq ko'ngil bog'laganmizki, obro'-e'tibor qozonmoq, ko'pchilikning nazariga tushmoqlik uchun bor budimizdan ayrilishga ham tayyor turamiz.

Mana, qarang. Har bir oilada otana farzandi baxt-u kamolini ko'rish uchun yelib-yuguradi, kun kelib, uni yaxshi oilaga kuyov yoki kelin qilish orzusida yashaydi. Bu yo'lda uyqusiz tunlar, halovatsiz kunlar, sog'liq boy beriladi. Yemay-ichmay to'plangan moddiy boyliklarimizning bir kunda kuli ko'kka sovriladi, shunday emasmi?

Shaharni-ku qo'ya turing, qishloqda oddiy xonadonda o'tkazilgan to'y misolida sizni ham bir mulohazaga chorlasak...

– Unashtiruv marosimi uchun kelinga sarpo, tilla uzuk-sirg'a, quda tomonning bobo-buvisidan tortib, eng kichik oila a'zosigacha kiyim-kechak olish va yana savat uchun patir, shirmon, qandolatlar, sifatli shokoladlar uchun 1500 AQSH dollari ketdi, – deydi yaqindagina to'y qilgan oila sohibasi. – Shundan keyin «to'y berdi», «katta to'y», «yuz ochdi» kabi marosimlar uchun 50 million so'm mablag'imiz yetmadi. Qavm-qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar, hamkasblar to'yona deb, ataganini berishdi. Lekin masalaning qiyin tomoni shundaki, to'yonalarining hammasi bo'ynimizdagi qarz. Chunki ular to'y boshlasa, biz ham ular qilgan yaxshilikka javob qaytarishimiz kerak.

Kelinning onasini tinglasangiz, hasratidan chang chiqadi. Qizining kontrakt to'lovini to'lab o'qitguncha oilaning tinka madori qurib bo'lgan. Kelinga sarpo liboslar, idish-tovoq, gilam, parda, mebeli uchun 50 mln so'm pul urvoq ham bo'lmadi. Mehmonlarni kuzatish, to'ydan keyingi marosimlar uchun, eh-he, yana shuncha mablag' kerak.

O'zingiz o'ylang, shuncha dabdaba, hashamat kimga, nima uchun kerak? To'yga ishtiyoqimiz shu qadar balandki, o'zaro suhbatlar

ham kimning to'yiga qancha odam kelgani-yu necha kilogramm osh damlangani, nechta savat qilingani haqida bo'ladi.

Uch-to'rt yil avval xalq boshiga kelgan sinovli kunlar – karantin davrida 30 kishilik to'y o'tkazganlar ham bo'ldi. Yaqin qarindoshimiz o'zaro yaqinlari davrasida kelin oldi. Sog'liqdan boshqasi ko'zga ko'rinmay, kamtargina o'tgan to'yni hech kim gapirmadi hatto. Chunki unda odamlarning yuragiga bu kabi mavzular sig'may qolgandi, hamma xavotirda, birovni g'iybat qilishga ham vaqt bo'lmagan.

Badavlat, o'ziga to'q oilalarga-ku bunday sarf-xarajatlarning o'rni bilinmas. Lekin faqat maoshga kun ko'radiganlar-chi, ular ro'zg'or aravasini tortgani ham holi qolmaganiga achinasan kishi. Biz tartibga kelishimiz uchun ana shunday og'ir kunlarga duchor bo'lishimiz shartmi, degan xayolga tolasan.

To'ylardagi oldi-berdilar tufayli ko'plab oilalar ajralish yoqasiga kelib qolgani, farzandlar taqdiri haqida o'ylamasliklari fojiamiz aslida. «Odamlar nima derkin?» degan tashvish va hadik bilan o'zimizni o'tga-cho'qqa urishdan naf yo'qligini,



Mana, o'sha oilada hozir 3 nafar o'g'il dunyoga keldi, ular to'yga ketadigan xarajatlarni yangi hovli olishga sarflab, qancha kam-ko'st-larini bitirib oldi.

qarzga botib, salomatlik yo'qolayotgani haqida o'ylasak, foydadan xoli bo'lmas.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
jurnalist.



MUSTAQILLIKDAN – YANGI O'ZBEKISTONGACHA

Davlat mustaqilligi – bu xalqning o'z kelajagini o'zi belgilash huquqidir. Bu huquq barchaning o'z yurti va xalqi taqdiri oldidagi mas'uliyatini ham anglatadi.

Mustaqillik e'lon qilindan buyon o'zbek xalqi o'z taqdirini o'zi mustaqil ravishda belgilashdan iborat bo'lgan huquqni muvaffaqiyatli amalga oshirib kelmoqda. Mustaqillik asrlar mobaynida uning uchun kurashib kelgan xalqqa keng tarixiy imkoniyatlar ochib berdi. Istiqlolning dastlabki yillari O'zbekistonda faol milliy davlat qurilishi, xalqning milliy o'zligini anglashning ortishi, ko'p asrlik ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining qayta tiklanish davri bo'ldi.

Mustaqillik O'zbekiston xalqiga qaddini baland tutish, o'z yerining haqiqiy xo'jayini deb his qilish, o'zbek xalqiga chinakam qadr-qimmat tuyg'usini, til va ma'naviyatini qaytarish imkonini berdi. Istiqlol O'zbekiston avval boshdanoq u milliy davlat qurilishining asosiy ustuvor yo'nalishi sifatida demokratiya qadriyatlarini, shaxsning huquq va erkinliklarini ta'minlash, erkin bozor iqtisodiyotini yaratish yo'lini tanladi.

Hozirgi dunyo globallashuvi jarayonida har bir davlat o'zligini saqlab qolishi, o'z mustaqil siyosatini yuritishi katta va murakkab masala. Ammo O'zbekiston buni uddalamoqda. Bu haqiqatni Prezidentimizning nufuzli xalqaro anjumanlarda bildirayotgan dolzarb masalalardagi amaliy takliflari xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilayotgani ham isbotlab turibdi.

Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umum-milliy harakatga aylanib borayotgan «Yangi O'zbekiston» g'oyasi zamirida ulug' ajdodlarimiz, alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari mujassam.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda muhim Uyg'onish jarayoni kechmoqda. Shuning uchun «Yangi O'zbekiston» va «Uchinchi Renessans» so'zlari hayotimizda o'zaro uyg'un va hamohang bo'lib yangramoqda, xalqimizni ulug' maqsadlar sari ruhlantirmoqda. Yur-

timiz qiyofasi shiddat bilan o'zgarib, hayotimizda yangicha munosabatlar, yangi imkoniyat va qadriyatlar shakllanayotganini har qachongidan ham ko'proq his

jadagi rahbar va mansabdorlarning ish faoliyatiga xolisona baho bermoqda, kamchiliklarni oshkora tanqid qilmoqda.

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, bugun jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda «Yangi O'zbekiston» iborasi tilga

kirish Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi etib belgilandi.

Birinchi navbatda, qo'shni davlatlar bilan munosabatlrimizda yillar davomida yig'ilib qolgan muammolar hal etildi. Qo'shni – qo'shnisi bilan, aka – ukasi, ota – bo-

Hamdo'stligi, Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorligimiz yangi bosqichga ko'tarildi.

Ma'lumki, ushbu davr – «Yangi O'zbekiston», «O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichi» degan nomlar bilan Vatanimiz tarixida, jahon hamjamiyati bilan munosabatlrimiz silsilasida g'oyat muhim o'rin egallab kelmoqda. Bu davr – O'zbekistonni, jamiyatimiz hayotidagi siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlarni butunlay o'zgartirgan, mamlakatimizni yangi, demokratik qiyofada jumlai jahonga tanitgan davrdir.

Odatda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar haqida so'z borganda, davlatimiz rahbari kamtarlik bilan: «Biz hali izlanishdamiz, o'rganishdamiz», deb bu yo'lda oldimizda bir-biridan muhim va dolzarb vazifalar turganini ta'kidlaydi. Chindan ham, hozirgi vaqtda yurtimizda mamlakat yetakchisidan tortib barcha bo'g'indagi rahbarlar yangicha sharoit, yangicha muhitda ishlashga, izlanib, o'rganib, xalq bilan muntazam muloqot asosida faoliyat yuritishga intilmoqda.

Yangi O'zbekiston – «inson qadri uchun» degan ezgu g'oya amalga oshayotgan ijtimoiy makondir. Ijtimoiy davlat barpo etishdan maqsad, birinchi navbatda, har bir fuqaroning munosib turmush sifati va darajasiga erishishdir.

Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda: «Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz».

G'ayratulla SHUKUROV,
o'z muxbirimiz.



etmoqdamiz. Ayniqsa, «inson huquq va erkinliklari», «qonun ustuvorligi», «ochiqlik va oshkoralik», «so'z erkinligi», «din va e'tiqod erkinligi», «jamoatchilik nazorati», «gender tenglik», «xususiy mulk daxlsizligi», «iqtisodiy faoliyat erkinligi» singari fundamental demokratik tushunchalar va hayotiy ko'nikmalar hozirgi vaqtda real voqeelikka aylanib borayotgani e'tiborlidir.

Xalqimiz hayotida majburiy mehnat, xususan, bolalar mehnati, ishsizlik, kambag'allik, korrupsiya, aholini uy-joy bilan ta'minlash, ta'lim va tibbiyot bilan bog'liq muammolar mavjudligini ochiq tan olib, ular keng jamoatchilik bilan birgalikda bartaraf etilmoqda. Bugun odamlarda adolatga, haqiqatga ishonch paydo bo'lmoqda. Ular turli dara-

olinmoqda. Bu keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofidir.

O'tgan tarixan qisqa davrda mamlakatimizning Markaziy Osiyo mintaqasi va jahon miqyosidagi siyosiy o'rni va nufuzi keskin oshdi. Dunyoda Yangi O'zbekistonga nisbatan ishonch ruhi va mamlakatimiz bilan hamkorlikka intilish tamoyillari kuchaydi. Yurtimizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, inson huquqlari, erkinlik va manfaatlarini amalda ta'minlash, bozor iqtisodiyoti prinsiplarini rivojlantirish orqali xalq farovonligini oshirish, tashqi siyosat sohasida Markaziy Osiyo mintaqasida do'stlik va hamkorlik ruhini kuchaytirish, dunyodagi rivojlangan davlatlar qatoriga

lasi, qarindosh – qarindoshi bilan uzilib qolgan aloqalarni tiklab, bir mamlakatdan ikkinchi davlatga emin-erkin borib kela boshladi. Savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarimiz jadal rivojlanib bormoqda.

Yana bir muhim tomoni shundaki, O'zbekiston bugun o'zining uzoqni ko'zlagan siyosati bilan mintaqamiz va jahondagi siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylandi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Parlamentlararo Ittifoq, Yevropa Ittifoqi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Mustaqil Davlatlar



Maqolani qoraqalpoq tilida o'qish uchun QR-kodni skaner qiling.

1-SENTABR – O‘ZBEKISTON MUSTAQILLIGI KUNI

BARCHAMIZNING BIRDEK BURCHIMIZ

Davlatimiz milliy siyosatining eng muhim, ustuvor yo‘nalishlaridan biri – mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha millatlarning ravnaqi uchun teng sharoit va imkoniyatlar yaratishdan, millatlararo munosabatlarni uyg‘unlashtirishdan iborat.

Prezidentimizning «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida»gi qarori yurtimizda olib borilayotgan tinchlik va barqarorlik, millatlararo totuvlik borasidagi sa‘y-harakatlarning navbatdagi yorqin ifodasidir.

Insonning erkinligi, uning sha‘ni va qadr-qimmatini jamiyatimizning oliy qadriyatidir. Konstitutsiyamizda mamlakatimiz barcha fuqarolari bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat‘i nazar qonun oldida tengdirlar, deb ko‘rsatib o‘tilgan.

Boshqa millatlarga hurmat va ehtirom bilan munosabatda bo‘lish – o‘zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Xalqimiz hech qachon o‘zini boshqa xalqdan ustun qo‘ymagan. Boshqa millatlarga, boshqa mazhab vakillariga munosib darajada ehtirom ko‘rsatgan.

Istiqlol arafasidagi vaziyatni bir eslang. Farg‘ona va O‘sh voqealari, mitingbozlik, parokandalik, iqtisodiy tushkunlik, boshqa millat vakillarida hukm surgan qo‘rquv va hadiksirash sharoitida tinchlik va barqarorlikni ta‘minlash uchun siyosiy va iqtisodiy vaziyatni izga solish, millatlararo munosabatlarning barqaror tizimini yaratish, odamlarda ertangi kunga ishonch tuyg‘usini uyg‘otish zarur edi. Bu vazifalar sharafla ado etildi. Istiqlol yillari Vatanimizda yashayotgan turli xalqlar o‘rtasida o‘zaro hurmat, tenghuquqlilik va hamjihatlikni mustahkamlashga, uning qonuniy asoslarini yaratishga jiddiy e‘tibor qaratildi. Bu tamoyillar O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlarimizda muhrlab qo‘yildi. Bugun erishgan barcha yutuqlarimizga mustaqillikning ilk yillarida qo‘yilgan mustahkam poydevor asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz boshchiligidagi keyingi yillarda O‘zbekistonda amalga



oshirilayotgan olamshumul o‘zgarishlar, Yangi O‘zbekiston konsepsiyasi, yildan-yilga obod bo‘lib ravnaq topayotgan shaharlar, tumanlar, viloyatlar, xalqimiz turmush darajasining ortib borayotganligi, qanchadan-qancha investitsiya loyihalarining samarali amalga oshirilayotganligining guvohi bo‘lib turibmiz.

Insoniyat uchun eng katta boylik tinchlikdir, uning manbayi esa hamjihatlikdir. O‘zaro totuvlik va do‘stlik, bag‘rikenglik va insonparvarlik tamoyillari barqaror go‘shadagina inson emin-erkin yashaydi, har qanday orzusiga erishadi. Shu jihatdan qara-

ganda, bizning eng katta boyligimiz, eng asosiy yutug‘imiz, yurtboshimiz uqtirganidek, avvalo, Vatanimiz osmonining musaffoligi, jamiyatimizda hukm surayotgan millatlar va fuqarolararo ahillik va hamjihatlik, do‘stlik va birdamlik muhitidir. Bu ne‘matlarning qadriga yetish hamda turli millat va elatlar vakillari bir oila farzandlaridek ahil-inoq yashayotgan Vatanimizni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash, kimligimizdan qat‘i nazar, barchamizning muqaddas burchimizdir.

G‘ayratulla SHUKUROV,
o‘z muxbirimiz.

HAFTA QAHRAMONI

«...ILTIMOS, QUTQARING!»

Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining hisobotiga ko‘ra, ichkilikbozlik tufayli dunyoda har yili 3 million kishi hayotdan ko‘z yummoqda. Bu har 10 soniyada bir kishi ushbu illat qurboniga aylanayotganidan dalolat beradi. Surunkali ichuvchilarning spirtli ichimlik ichmaydiganlarga nisbatan o‘rtacha o‘lim ko‘rsatkichlari ikki barobarga yuqori ekan. Bu esa inson umrini 17–18 yilga qisqartiradi.



O‘rganishlar natijasida suvga cho‘kkanlarning 2/3 qismi (60 foizdan ko‘prog‘i) spirtli ichimlik ichgan kishilar bo‘lishi aniqlandi.

Yaqinda suvga cho‘kayotgan fuqaro qutqarilganda, u spirtli ichimlik ta‘sirida shu ishga qo‘l urgani aniqlandi. Voqea poytaxtimizning Uchtepa tumanida sodir bo‘ldi. Tuman IIOFMB Navbatchilik qismiga soat tungi taxminan 03:50 lar

atrofida Uchtepa tumani hokimiyati postida xizmat olib borayotgan tuman Qo‘riqlash bo‘limi safdor xodimi S.Jo‘raxonov noma‘lum fuqaro «Bo‘zsu» kanaliga o‘zini tashlaganligi yuzasidan xabar beradi. Voqea joyiga zudlik bilan Qo‘riqlash otryadi, IIOFMB tergov-tezkor guruhi xodimlari yetib boradi.

– Bir fuqaro cho‘kayotgan odamni qutqarishga



urinayotganini, ammo kuchi yetmayotganini ko‘rib men ham darhol o‘zimni suvga otdim, – deydi Qo‘riqlash bo‘limi Xizmatni tashkil etish guruhi katta inspektori, kapitan Sarvarbek Meliqo‘ziyev. – Fuqaro tinmay «O‘lishni istamayman, iltimos, qutqaring!» deb baqirardi.

Mutaxassislarining ta‘kidlashicha, suvda cho‘kayotgan odamni qutqarish uchun qutqaruv anjomlari va qayiqlardan foydalaniladi. Ular bo‘lmaganda esa qutqaruvchi xavfsizlik choralari bilish talab etiladi. Agar cho‘kayotgan odam hushini yo‘qotgan bo‘lsa, uni suvdan

olib chiqish ancha qulay. Lekin hushini yo‘qotmagan bo‘lsa, sarosima va vahimaga tushgan holda qutqaruvchiga qattiq yopishishi, uni ham suv ostiga tortib ketishi mumkin. Qahramonimiz bu borada barcha jismoniy mahoratini ishga soldi va qisqa fursat ichida cho‘kayotgan fuqaroni qutqarib qolishga muvaffaq bo‘ldi.

Bilamizki, o‘lim holati faqatgina suvda emas, balki jabrlanuvchi suvdan olib chiqilgandan so‘ng ham kuzatilishi mumkin. Jonlantirish tadbirlarining ijobiy natijasi ularning to‘g‘ri va o‘z vaqtida ko‘rsatilishiga bog‘liq.

Shu bois Tez tibbiy yordam xodimlari fuqaroga birinchi yordam ko‘rsatib, uni Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markaziga olib ketishdi.

– Olib borilgan surishtiruvlar natijasida o‘zini suvga tashlagan fuqaro shu tumanining «Beshqayrag‘och» mahallasida istiqomat qiluvchi S.Valijonov ekanligi ma‘lum bo‘ldi, – deydi Uchtepa tumani IIOFMB boshlig‘ining o‘rinbosari, podpolkovnik Sharapat Kudiyarov. – Uning umr yo‘ldoshi bilan suhbatlashganimizda, oilada hech qanday ziddiyat yuzaga kelmaganini aytdi. So‘nggi paytlarda S.Valijonov spirtli ichimlik iste‘mol qilayotgani va mastlik natijasida o‘zini nazorat qilolmayotganini bayon qilib, bu holat ham ichkilik ta‘sirida bo‘lganini bildirdi. Turmush o‘rtog‘ini qutqarib qolganlarga alohida minnatdorlik bildirdi.

Darhaqiqat, ichkilikbozlik, spirtli ichimliklarga tobeklik insonning tanasini g‘arib, ruhini xasta qiladi. Yuqoridagi holatdan har kim o‘zi uchun to‘g‘ri xulosa chiqarib olsa, ajabmas...

Adolat FAYZIYEVA,
o‘z muxbirimiz.

Toshkent shahri.


www.postda.uz

t.me/postdarasmiy

www.instagram.com/postda_uz



Урок духовности и просвещения

Независимость страны, или государственный суверенитет, – это политическая самостоятельность и отсутствие подчиненности, то есть возможность государства самостоятельно принимать решения, не завися от других стран или внешних сил. Это означает, что страна имеет право на самоопределение, на формирование собственной внешней и внутренней политики, на защиту своих интересов и на участие в международных отношениях наравне с другими. Это право означает и огромную ответственность всех и каждого за судьбу Родины.

Обретение независимости – это не только история государственности. Это история народа и судеб людей, чьи жизни были затронуты переменами. Президент страны не раз подчеркивал, что никакие препятствия, не смогли остановить устремления нашего народа к свободе, и история – лучшее тому доказательство.

Первые годы независимости стали периодом активного государственного строительства в Узбекистане, роста национального самосознания, возрождения его многовековых духовно-нравственных ценностей.

Благодаря независимости наш народ обрел право самостоятельно распоряжаться своей судьбой. Это открыло возможность жить достойно и строить правовое демократическое государство. В настоящее время она служит прочной основой для того, чтобы каждый человек в полной мере проявлял свои способности в экономической и социальной сферах, реализовывал права и свободы.

За годы независимости восстановлена наша история, богатое наследие, национальная государственность, священная религия, обычаи и традиции. Глубоко укоренились такие благородные качества, как доброта, сплоченность, уважение к национальным и общечеловеческим ценностям, чувство сопричастности к судьбе и будущему своей страны.

ОТ НЕЗАВИСИМОСТИ ДО НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Одной из движущих сил глубоких перемен, изменяющих облик современного мира, является стремление народов к независимости. Три с лишним десятилетия назад на карте мира появилось новое независимое государство – Республика Узбекистан. Мы объявили миру национальную государственность нашей страны. Так, 31 августа 1991 года в Ташкенте на внеочередной 7-й сессии Верховного Совета Узбекской ССР была провозглашена государственная независимость Узбекистана.



Постановление Президента страны «О подготовке и проведении празднования тридцать четвертой годовщины государственной независимости Республики Узбекистан» является очередным ярким воплощением проводимых в нашей стране мер по обеспечению мира и стабильности, межнационального согласия.

Сегодня независимо от национальной принадлежности все граждане Узбекистана пользуются равными правами и активно участвуют в социальной, экономической, политической и культурной жизни общества.

Серьезное внимание уделяется укреплению взаимного уважения между народами, проживающими в стране.

Закрепление в Конституции Республики Узбекистан положения о том, что «все граждане имеют одинаковые права и свободы, равны перед законом независимо от пола, расы, национальности, языка, религии, убеждений, социального происхождения, общественного положения», создало политико-правовую основу для таких достижений. Большое значение имело и то, что Узбекистан

проявил твердую волю в приверженности обеспечения уважения к языку, традициям, обычаям и культуре различных наций и народностей, создания необходимых условий для их развития, запрещения деятельности, направленной на ущемление конституционных прав и свобод граждан, пропаганду социальной, национальной, расовой и религиозной вражды.

Самое большое достояние – это мир и стабильность, межнациональное и гражданское согласие в нашем общем доме.

Именно благодаря независимости Узбекистан вступил в новую историческую эпоху. Благодаря независимости мы обрели достойное место в мировом сообществе.

Президент нашей страны отмечает, что для построения Нового Узбекистана нам предстоит пройти путь, который потребует от каждого гражданина смелости, самоотверженности.

Пройдут годы и века, но День независимости, установивший нашу национальную государственность, всегда будет оставаться самым великим, самым дорогим праздником.

Гайратулла ШУКУРОВ.



BIZ – KORRUPSIYAGA QARSHIMIZ!

EGRI O'SGAN KUL
BO'LAR

Jizzax shahrining Amir Temur mahallasida yashovchi A.A. ichki ishlar organlariga murojaat qilib, voyaga yetmagan qizini noma'lum shaxs o'g'irlashga uringanligini bildirdi. Ma'lum bo'lishicha, jabrlanuvchi yo'lovchi sifatida o'zini Hojiakbar deb tanishtirgan yigitning «Cobalt» rusumli avtomashinasiga yo'lovchi sifatida chiqqan. O'zaro muloqot davomida qiz haydovchi uni o'g'irlamoq niyatidaligini sezadi va avtoulodvan tushib qochadi. Mazkur jarayonda yiqilib, tan jarohati olgan.



Tabiiyki, darhol gumon qilinuvchini tutishga qaratilgan tezkor tadbirlar amalga oshirildi va qonunbuzarlik Qashqadaryo viloyatida istiqomat qiluvchi X.S. tomondan sodir etilgani aniqlandi. «Cobalt» X.S.ning tanishi, qashqadaryolik M.Y.ga tegishli bo'lib chiqdi. O'z navbatida, tergovga qadar tekshiruv harakatlari olib borildi.

Ishning bunday tus olishi avtoulod egasiga yoqmadi. U surishtiruv o'tkazayotgan Jizzax shahar IIB 2-sonli IIB HPB profilaktika katta inspektori, mayor Akram Gulmurodovga 10 million so'm pora taklif qildi. Bu pul qonunbuzarlikka doir ishni harakatdan to'xtatish hamda avtomashinaning jarima maydonidan chiqarilishiga omil bo'lishi kerak edi.

Mayor suhbatdoshiga pora berish oqibatlarini tushuntirdi.

Lekin M.Y. profilaktika katta inspektoriga pul tiqishtirishda davom etdi. O'z navbatida, Akram Gulmurodov mazkur holat to'g'risida viloyat IIB rahbariyatiga xabar berdi. Natijada IIV SHXBB viloyat bo'yicha bo'limi hamda prokuratura xodimlari ishtirokida tezkor tadbir o'tkazilib, 7 million 900 ming so'mni mayorga pora tariqasida bergan M.Y. ashyoviy dalillar bilan ushlendi.

Tezkor surishtiruv davomida gumon qilinuvchi X.S. ijtimoiy tarmoq orqali G.A. ismli ayol bilan tanishgani, uni majburan avtoulodga chiqarib, olib qochgani hamda Zomin tumani hududida zo'rlagani aniqlandi. Ushbu holatlar yuzasidan tegishli tartibda jinoyat ishlari qo'zg'atildi.

Alijon ABDUSATTOROV,
o'z muxbirimiz.
Jizzax viloyati.

ISLOHOTLAR – AMALDA

Xorazm viloyati hududida harakat xavfsizligini ta'minlash, yo'l-transporti hodisalarining oldini olish, transport harakatini samarali tashkil etish hamda fuqarolar uchun xavfsiz va qulay sharoitlarni yaratish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

YO'L RAVONLIGI –
YURT FAROVONLIGI

Joriy yilning o'tgan davri mobaynida viloyat hududidagi yo'l infratuzilmasini yaxshilash maqsadida 1121 dona yangi yo'l belgilari o'rnatildi, 546 dona eskirgan yo'l belgilari yangisiga almashtirildi, 10 ta chorrahaga transport svetofor obyektlari, 2 ta piyodalar o'tish joyiga piyodalar tomonidan boshqariladigan svetofor qurilmalari o'rnatildi. Shuningdek, 399242 metr kvadrat yo'l yotiq chiziqlari chizildi, 120255 metr kvadrat avtomobil yo'llari qatnov qismi qayta ta'mirlandi, 8 kilometr yangi yo'llar, 7 kilometr piyodalar va velosiped yo'lagi qurildi, 26 ta umumta'lim maktabi oldida qavariq piyodalar o'tish yo'lagi tashkil etildi.

Ayni kunda avtomobil yo'llarida amalga oshirilayotgan bu kabi keng ko'lamdagi ishlar samarali davom etmoqda.

Xususan, Qo'shko'pir tumanida avtomobillar oqimini nazorat qilish va tirbandliklarning oldini olish maqsadida D-220 hamda D-222 avtomobil yo'llari tutashgan chorrahada aylanma harakatlanish tashkil etilyapti. Bu infratuzilma haydovchilar uchun muhim qulaylik yaratish bilan birga yo'l-transport hodisalarini xavfining keskin kamayishiga xizmat qiladi. Shuningdek, Shovot tumanini qo'shni Turkmaniston Respublikasi bilan bog'lovchi avtomobil yo'lini kengaytirish va ta'mirlash, eskirgan yo'l belgilarini yangisiga almashtirish, svetofor qurilmalarini o'rnatish ishlari

jadal sur'atlarda davom etmoqda. Ushbu yo'l xalqaro ahamiyatga ega bo'lib, uning zamonaviy holatga keltirilishi yuk hamda yo'lovchi tashish sifatini sezilarli darajada yaxshilash hamda xavfsizlikni ta'minlash imkonini beradi.

Gurlan tumanida esa eskirgan va foydalanishga yaroqsiz holga kelib qolgan avtomobil ko'prigi to'liq qayta qurilmoqda. Bu nafaqat transport vositalarining uzluksiz harakatlanishini ta'minlaydi, balki mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Yangibozor tumani hududida piyodalar harakati xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilyapti. Tumandagi



aholi gavjum hududlardagi avtomobil yo'llarida piyodalar yo'laklari barpo etilib, zamonaviy svetoforlar hamda tungi yoritish chiroqlari o'rnatish ishlari davom etmoqda.

Bu o'z navbatida mahalliy aholining, ya'ni maktab o'quvchilari, keksa yoshdagi fuqarolar hamda boshqa harakat ishtirokchilarining xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.

Xorazm viloyati.

QO'RIQLASH XIZMATI

SAMARQAND VILOYATI



Bulung'ur tumani Qo'riqlash bo'limi shaxsiy tarkibi tomonidan tumandagi 70 ta obyekt va 238 ta xonadon qo'riqqa olingan. Shuningdek, 290 ta tashvish tugmasi o'rnatilgan. Xodimlarning tashabbusi bilan joriy yilning o'tgan davri mobaynida 25 ta turli huquqbuzarliklar va jinoyatlarning oldi olindi.

Hozirgi kunda «aqlli» kameralar, signalizatsiya tizimlari, mobil kuzatuv qurilmalari Qo'riqlash bo'limi faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilayapti.

Umida MAMADALIYEVA,
o'z muxbirimiz.



▶ IJTIMOIIY HIMOYA

«Ijtimoiy himoya oyli» doirasida Jizzax viloyati ichki ishlar organlarida ham bir qator xayriy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, viloyat, shahar va tumanlar ichki ishlar organlari va sohaviy xizmatlar rahbarlari xodimlarning yashash joylarida bo'lib, muammolarini o'rganib, bartaraf etish choralarini ko'rmoqdalar.

EZGULIKKA YO'G'RILGAN TADBIR



Ana shunday muloqotdan so'ng G'allaorol tumani IIB xodimi, leytenant Sahob Oqnazarovga 10 million so'm miqdorida moddiy yordam ajratildi. Shuningdek, hashar uyushtirilib, uning bitmagan uyi qurilishida yordam berildi. Bundan tashqari, uyning tomi uchun 140 ta shifer ajratildi.

Xuddi shunday hashar Do'stlik tumani IIB xodimi, mayor Noryigit Avalboyevning yashash joyida ham o'tkazildi.

Viloyat IIB Tibbiyot bo'limi shifokorlari esa 6 nafar yotib qolgan faxriyning holidan xabar olib, zaruriy tibbiy yordam ko'rsatdilar. Bir guruh xodimlar va ularning oila a'zolari hamda faxriylar tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, davolanishga doir tavsiyalar berildi. Yana bir guruh faxriylarga esa sanatoriy va shifoxonalarda sog'liqlarini tiklashlari uchun yo'llanmalar ajratildi.

Qolaversa, soha vakillarining 40 nafar farzandi «Zomin» sog'lomlashtirish oromgohida imtiyozli asosda dam olmoqda. Ya'ni, ushbu bolalarga berilgan yo'llanma xarajatlarning 50 foizi boshqarma hisobidan to'lab berilgan. Shuningdek, sayohatlar uyushtirilmoqda. Jumladan, G'allaorol tumani IIB xodimlari

Samarqand shahridagi muqaddas qadamjolarni ziyorat qildilar. Viloyat IIB YHXB shaxsiy tarkibi esa Jizzax shahridagi «O'rda» bog'ida yuzaga keltirilgan san'at va madaniyat namunalari bilan tanishdilar. Yangiobod tumani IIB xodimlari hududdagi «Xo'jamushkent ota» ziyoratgohiga bordi.

Yaqin bir necha kun ichida 200 nafarga yaqin xodimning Samarqand, Xorazm, Buxoro va Qashqadaryoga sayohatini tashkil qilish rejalashtirilyapti. Qolaversa, muzeylar va teatr tomoshalariga borilib, arzonlashtirilgan maishiy texnika, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkalari uyushtirilyapti.

Bundan tashqari, oylik doirasida soha vakillaridan 17 nafarining uy-joy kreditining boshlang'ich to'lovi to'lab berilishi, 15 nafariga kam foizli avtokredit, 21 nafariga foizsiz qarz, 40 nafariga to'y va boshqa marosimlar uchun moddiy yordam ajratilishi ko'zda tutilyapti. Shuningdek, 12 nafar xodim va ularning oila a'zolarining sog'liqlarini tiklashi uchun pul beriladi. Qisqasi, bu oy ezgu amallarga boy bo'ladi.

Muzaffar ABDURASHIDOV,
mayor.

Jizzax viloyati.



▶ KINOLOGIYA XIZMATI

ENG SODIQ HAMKOR

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish va fuqarolar xavfsizligini ta'minlashda xizmat itlarining o'rni beqiyos. Surxondaryo viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi xodimlari ham o'z xizmat itlari bilan birgalikda tinchlik va osoyishtaligimiz posboniga aylangan.

Bo'linmaning Termiz tumani-dagi «Nurafshon» mahallasida joylashgan 5,5 gektar maydonga ega maxsus pitomnigida 50 boshdan ortiq xizmat iti parvarish qilinmoqda. Nemis va sharqiy Yevropa ovchakalari, labrador kabi zotlar orasidan 33 tasi maxsus yo'nalishlarda – iz qidirish, giyohvandlik va portlovchi moddalarni aniqlash, anti-terror hamda qo'riqlash bo'yicha o'rgatilgan.

Pitomnikdagi 64 ta volyer zamonaviy sharoitlarga ega bo'lib, har bir itning alohida parvarishi yo'lga qo'yilgan, — deydi viloyat IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi veterinariya guruhi veterinar-shifokori, kapitan Sherzod Rahimov. — Har bir it muntazam ravishda ko'rikdan o'tkaziladi. Emlash, dezinfeksiya, oziqlanish tartibi ham qat'iy nazorat ostida. Chunki sog'lom

Aytish kerakki, bo'linma xodimlari o'zlariga birlashtirilgan xizmat itlari bilan belgilangan muddatlarda umumiy va maxsus yo'nalishlar bo'yicha sinovdan o'tkaziladi. Sinov jarayonida xizmat itlari itoatkorlik, himoya qilish, iz bo'yicha qidiruv, giyohvandlik va portlovchi moddalarni aniqlash kabi yo'nalishlarda o'z malakalarini namoyon qildi. Har bir kinolog va it jamoasi belgilangan mezonlar asosida baholandi. Ushbu sinovlar muntazam ravishda o'tkazib boriladi. Chunki xizmat itlarining doimiy tayyorgarlik darajasi ularning samarali faoliyat yuritishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Sinovlar orqali nafaqat itlarning, balki kinologlarning ham tajribasi oshadi.

Ta'kidlash joizki, Kinologiya bo'linmasi xodimlari tomonidan tayyorlangan xizmat itlari



itgina xizmatda yuqori natija ko'rsatadi.

Shu yilning o'tgan davrida xizmat itlari ishtirokida 527 marta profilaktik tadbir o'tkazildi, 290 ta jinoyat sodir etilgan joylarga tezkor chiqildi. Natijada 108 ta jinoyat issiq izida fosh etildi. Ularning 87 tasi o'g'rilik, 21 tasi giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlarni tashkil etadi. Qolaversa, xizmat itlari yordamida jami 907 grammdan ortiq giyohvandlik moddalari aniqlanib, muomaladan chiqarildi.

Hozirda kinolog xodimlar xizmat itlari bilan Boysun tumanidagi «Darband» va «Manguzar» YPX maskanlari, Termiz temir yo'l vokzali va Termiz xalqaro aeroporti kabi hududlarda doimiy navbatchilik olib borishmoqda.

jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, tabiiy ofatlar yoki favqulodda vaziyatlarda qidiruv-qutqaruv ishlarini olib borishda beqiyos yordam bermoqda. Yarim yillik sinov yakunlari shuni ko'rsatdiki, Surxondaryo viloyati kinologlari va ularning sodiq hamrohlarning tayyorgarlik darajasi yuqori baholandi. Eng yaxshi natija ko'rsatgan kinologlar esa rag'batlantirildi.

Xizmat itlari – nafaqat huquqbuzarliklarning oldini olishda, balki xalqimiz tinchligini ta'minlashda eng sodiq hamkor va xavfsizlik posbonlaridir.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.



■ Самаркандская область

ДОСТОЙНЫЙ ПРИМЕР

Передавать опыт молодому поколению, помогать в решении вопросов жителей махалли – такие задачи ежедневно выполняет майор в отставке Абдукаххор Кудратов. Несмотря на почтенный возраст (в этом году ему исполняется 70 лет), он остается активным и продолжает приносить пользу обществу. Его поддержка и ценные советы помогают молодым сотрудникам органов внутренних дел быстрее и эффективнее решать сложные вопросы.

Благодаря этому мудрость старшего поколения и инициативность молодежи становятся важным фактором успеха. Нередко именно благодаря ветеранам и их богатому опыту удается раскрыть преступления.

Службу в органах внутренних дел А. Кудратов начал в 1976 году, после прохождения срочной военной службы. За годы работы он прошел путь от рядового инспектора службы охраны до руководителя, а перед выходом на заслуженный отдых возглавлял Сиябский районный отдел.

– Мой отец был преподавателем, – вспоминает Абдукаххор Кудратов. – Он мечтал, чтобы кто-то из сыновей носил форму. Судьба распорядилась так, что четверо из нас посвятили себя службе Родине.

За плечами ветерана – немало раскрытых преступлений. Среди них есть истории, которые он вспоминает с особым чувством.

– В 1985 году, будучи простым инспектором, задержал преступника, пытавшегося ограбить магазин, – рассказывает он. – Сначала услышал подозрительный шум, а

подойдя ближе, заметил отключенную сигнализацию. Злоумышленник попытался скрыться, а затем достал нож. К счастью, мне удалось его обезвредить. Позже выяснилось, что это был преступник, находившийся в розыске.

Сегодня Абдукаххор Кудратов известен не только как ветеран ОВД, но и как активный житель махалли Янги Хаёт города Самарканда. Он помогает людям решать самые разные жизненные вопросы.

– Недавно мы оформили документы для 15-летнего Шахрама, – делится наш собеседник. – Его мать



когда-то привезла мальчика к няньке и исчезла. Совместными усилиями удалось восстановить его права, сейчас он учится в 7 классе.

Несмотря на занятость в махалле, ветеран частый гость в УВД области, где продолжает делиться

своим опытом и знаниями с молодежью. Верность присяге, забота о людях, честность и принципиальность – качества, которые делают Абдукаххора Кудратова достойным примером.

Замира БАЛТАЕВА,
соб. корр.

■ Джизакская область

ПОБЕДИЛИ СИЛЬНЕЙШИЕ

В Джизаке состоялся чемпионат страны по рукопашному бою на кубок министра внутренних дел.

В нем приняли участие 18 команд, в том числе мастера рукопашного боя из командования Караульных войск МВД, департаментов по исполнению наказания и обеспечения безопасности на объектах транспорта и туризма, а также из управлений МВД Республики Каракалпакстан, ГУВД города Ташкента и УВД областей.

В течение трех дней проходили захватывающие поединки. Мужчины выступали в весовых категориях до 57, 62, 67, 73, 80, 88, 97 килограммов и выше. Женщины участвовали в весовых категориях до 58 килограммов и выше.

В общекомандном зачете завоевала кубок сбор-

ная команда УВД Ферганской области. Второе место заняла команда ГУВД города Ташкента. Третье место присуждено представителям Джизакской и Навоийской областей.



На торжественной церемонии закрытия победители и призеры награждены дипломами, медалями и памятными подарками. Поощрены лауреаты в номинациях «Мастер с лучшей техникой» и «За волю к победе», а также рефери.

Подобные соревнования помогают совершенствовать боевую выучку и оттачивать мастерство.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.



Нет наркотикам!

**ЗАДЕРЖАН
ПОТЕНЦИАЛЬНЫЙ
СБЫТЧИК**

В рамках оперативно-профилактических мероприятий ведется активная борьба с незаконным оборотом наркотических средств и психотропных веществ.

В Мирзо-Улугбекском районе Ташкента выявлен факт незаконного хранения и распространения наркотиков. В ходе обыска в спальном комнате квартиры гражданина С. А., 1989 года рождения, в присутствии понятых было обнаружено и изъято смолистое вещество со специфическим резким запахом, предположительно гашиш.

На допросе подозреваемый сообщил, что приобрел наркотики с целью дальнейшей перепродажи через мессенджер Telegram. При этом, по его словам, он не испытывал финансовых трудностей: недавно продал свой автомобиль и имел свободные средства. Однако, из-за обилия свободного времени, решил заняться этим «бизнесом», чтобы получить дополнительную прибыль.

В отношении мужчины избрана мера пресечения в виде заключения под стражу и возбуждено уголовное дело по статье 273 УК. Следствие продолжается.

Данный случай в очередной раз подтверждает, что никакие оправдания и ссылки на «свободное время» не освобождают от ответственности перед законом.

Соб. корр.



KASB FIDOYISI

TAJRIBASI QO'L KELDI

Nuriddin Jumanov hayotini el osoyishtaligiga baxshida etgan insonlardan. U ichki ishlar organlari tizimidagi faoliyatini 2007-yilda Yangiyer shahar IIB huzuridagi Qo'riqlash bo'limi inspektorlikdan boshlagan edi. Safdor Nuriddin Jumanov ko'pincha shahardagi bank, sud binolarni qo'riqlashga jalb etilardi. Har ishning o'z sir-asrori, tartibi bo'ladi.

Nuriddin odamlarning ruhiyati, odatlari, o'zini tutishidan maqsadini anglash mumkinligini tezda tushunib yetdi. Bu esa unga o'z kasbining ustasi bo'lib yetishishida qo'l keldi. Ayniqsa, bankda xavfsizlikni ta'minlash anchagina murakkab edi. Ba'zan mast holdagi odamlar, tilanchi qiyofasidagi cho'ntakkesarlar ham muassasa oldiga kelib qolardi. Nuriddin bunday vaziyatlarda qanday chora ko'rish hadisini tezda o'zlashtirib oldi.

2018-yilda uni Mirzaobod tumani IIB Tashkiliy bo'limi Konvoy xizmatiga o'tkazishdi.

Endi mahbus va mahkumlarini qo'riqlash uning vazifalari doirasiga kirardi. Ba'zan kutilmagan holatlar yuz berib qolardi. Masalan, mahbuslarning ayrimlari qochishga urinib ko'rishardi. Lavhamiz qahramoni bunday vaziyatlarni osonlik bilan bartaraf eta olardi.

Safdor Nuriddin Jumanov o'tgan yildan boshlab Mirzaobod tumani IIB Tashkiliy bo'limi Ta'minot bo'linmasi Xizmat ko'rsatish guruhi haydovchisi lavozimida xizmat qilib kelmoqda. Unga navbatchilik mashinasida tergov-tezkor guruhini voqea joyiga zudlik

bilan yetkazib borish vazifasi yuklatilgan. Yaqinda tuman-dagi mahallalardan birida og'ir jinoyat sodir etgan xavfli jinoyatchini qo'lga olishda Nuriddin Jumanov ham faol ishtirok etdi. Bunda ilgari to'plagan tajribasi qo'l keldi.

Lavhamiz qahramoni oilali. U turmush o'rtog'i bilan to'rt qiz, bir o'g'ilni voyaga yetkazmoqda. Xizmat faoliyati davomida bir necha bor rag'batlantirilgan.

**Abdurahmon
MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.**

Sirdaryo viloyati.



SUD OCHERKI



«HOJATBAROR» KELIN

Uni qo'ni-qo'shnilar samarqandlik kelin deb bilishardi. Keyin tadbirkorligi ham ayon bo'ldi. Oradan ko'p o'tmay esa...

– Boraman, de-sangiz, olib boraman. Ammo unga cha bir-ikki «oborot» qilib olsangiz yaxshi bo'lardi. Xitoy bog'ning yo'li emas, harqalay. Yo'lning o'zi to'rt-besh mingni yeb qo'yadi.

– Hozir mendan nima yordam? – Zulhiyaxonning kayfiyati tushdi.

– Shu, pul masalasi... ozroq yetmay turibdi.

– Xay, maslahatlashib ko'ray, – deya Zulhiyaxon

yoqar-yoqmas xayrlashdi.

Ertasi kuni Mehriqul «temirni qizig'ida bosish kerak» degan aqidaga amal qilib, Zulhiyaxonnikiga bordi. Olib kelayotgan tish quyish apparati juda xaridorgirli va uni ishlatish qiyin emasligi, ko'rsatma asosida ishlatilsa, kifoya ekanligini shunday qoyillatib tushuntirdiki, Zulhiyaxon o'zi sezmaganda holda qiyqirib yubordi. Ayniqsa, quyilgan tish qoliplariga mijozni topib berishini aytganida, o'zini bir yumalab «boyvuchcha xonim»ga aylanganday his qildi. Shu bois, avval, 1500 AQSH dollari va 1000 AQSH dollarilik tillavorlarini ikki qo'llab topshirdi. Oradan bir qancha vaqt o'tganidan so'ng, tish quyishga mo'ljallangan apparat uchun aksiya e'lon qilinganligini, hozirda uning narxi 7800 AQSH

dollariga tushganini, tanish-bilishlardan qarz-qavola qilib bo'lsa ham, olsa yaxshi bo'lishini «jon kuydirib» aytdi. Zulhiyaxon yana 1500 AQSH dollari so'rab-surishtirib topdi. Ammo hali pul to'liq bo'lmaganligi sababli, qizining tilla taqinchoqlarini olib, ularni 7 million 700 ming so'm evaziga «Lombard»ga garov uchun qo'ydi va o'zidagi pullarga qo'shib, M.Ramazonovaga yana 11 million 750 ming so'm pullarni berdi.

M.Ramazonova yana pul talab qilavergach, rostiga ko'cha qoldi: «Boshqa pulim qolmadi». Shunda Mehriqul qolgan pulni o'zi qo'shib, tibbiy apparatni keltirishini aytdi va uning xonadonidan oyog'ini uzdi.

M.Ramazonova yana bir qo'shni-si N.Salimovaga uchrashib, qarz berib turishini iltimos qiladi. Biroq u ortiqcha puli yo'qligini aytgach, ikkinchi rejasini amalga oshiradi.

– Kredit olay, desam, hech qayerda ishlamayman. Xay desangiz, nomingizga mikroqarz olsam, – dedi Mehriqul tilyog'malik bilan va qo'shib qo'ydi. – Xitoydan tibbiy vositalar olib kelyapmiz. Ko'pi bilan 3–4 kun ichida yo'lga chiqadi. Menga hozircha 15 million so'm atrofida pul zarur bo'lib qoldi.

N.Salimova Mehriqulning gapiga chippa-chin ishonib, rozilik berdi. Ammo bankdan kreditini olgach, qaytib qorasini ko'rsatmadi.

Shu tariqa, M.Ramazonova o'zining jinoiy harakatlarini davom ettirib, Sh.Boltayevaning ishonchiga kirib, AT «Xalq banki» viloyat Amaliyot bo'limi tomonidan «Har bir oila – tadbirkor» dasturi asosida

tibbiy uskuna sotib olishi uchun ajratilgan 32 million 800 ming so'm miqdordagi kredit pullarini o'zining korxona hisob raqamiga ko'chirtirishga erishadi. Qolaversa, u Sh.Boltayevaga o'zi ijara asosida faoliyat ko'rsatib kelayotgan xonasini 1 million so'm evaziga muddatsiz ijaraga berayotganligi to'g'risida qalbaki ijara shartnomasini rasmiylashtiradi.

Bundan tashqari, fuqaro E.Qodirovaga yuqori lavozimda ishlovchi tanishi orqali viloyat Perinatal markaziga hamshira lavozimiga ishga joylashtirishni va'da qilib, 500 AQSH dollari miqdoridagi naqd pullarni oladi. Bu pullarni ham o'z manfaati yo'lida sarflaydi. Yana G'.Shodiyevga tegishli bahosi 25000 AQSH dollariga teng tibbiy UZI va IVEL, avtoklaf nomli apparatlarni sotib berishga va'da qilib, ularni qo'lga kiritadi. Amalda esa bu tibbiy apparatlarni boshqa shaxslarga sotib, pullarni o'z ehtiyojlariga sarflab yuboradi.

M.Ramazonovanning tibbiy apparatlaridan darak bo'lavermagach, chuv tushganiga ishonch hosil qilgan jabrlanuvchilar birin-ketin Buxoro shahar IIOFMBga murojaat etishga majbur bo'lishdi. Tezkor harakatlar natijasida «hojatbaror» kelin qo'lga olinib, hayoti makr va firibga to'la bu ayolning faoliyatiga chek qo'yildi.

(Voqea qahramonlarining ism-shariflari o'zgartirildi).

**Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.**



KUZDA QANAQA OB-HAVO KUTILYAPTI?

Yoz chillasi anchagina issiq bo'ldi. Avgust oyi boshlanishi bilan biroz salqin tushdi. Xo'sh, kuzda ob-havo qanday bo'lishi mumkin? Sinoptiklar nima demoqda? Ayni savollar bilan iqlimshunos Erkin ABDULHATOVga yuzlandik.

– Bugun butun dunyoda iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muammo insoniyatni tashvishga solmoqda. Bu global ekologik muammolarining biri bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari uchun ham dolzarb ahamiyatga ega.

Iqlimshunoslar orasida 1850-yildan buyon dunyo bo'yicha havo haroratida o'zgarishlar yuz bergan, degan fikr bor. Shu yilga qadar insoniyat ko'mirdan foydalanagan. Keyinchalik elektr energiyasining ishlab chiqarilishi, sanoat sohasining rivojlanishi ortidan havoda turli gazlarning miqdori ortib, havo haroratining buzilishi, ko'tarilib borishi kuzatildi. 2016-yilga kelib butun dunyoda har yili o'rtacha issiq harorat 1 darajadan yuqorilab bordi. 2024-yilga kelib esa 1,5 darajaga ko'tarildi. Bu qiymat bizda sal ko'proq – yiliga 2 darajani tashkil qiladi.

O'zbekiston iqlimi – keskin kontinental iqlim. Hududining katta qismi yarimcho'l va cho'lliklar, qolgan qismi – janubi-sharqiy va sharqiy hududlar baland tog'liklardan iborat. Okean bizdan ancha uzoqda. O'zbekistonda kontinental iqlimning paydo bo'lishiga uning geografik o'rni, quyosh radiatsiyasi hamda atmosfera sirkulatsiyasi ta'sir etadi. Mam-



bo'lgan hududlarda yashaydi. Orol fojiasi tufayli Markaziy Osiyo ham bu muammoga duch keldi. Joriy yilda 18–23-iyul kunlari juda issiq harorat kuzatildi. Toshkent shahrida 15 kunlar atrofida 40 dan yuqori daraja kuzatildi. Termiz shahrida bunday issiq kunlar davomli 25 kunni tashkil qildi. Issiq havo inson tanasidagi melotanin ishlab chiqarilishini

– Erkin Ikromovich, iqlimdagi keskin o'zgarishlarning asl sababi nimada?

– Aslida iqlimda doim tabiiy o'zgarishlar bo'lib turadi. Ammo hozirgi global iqlim o'zgarishlari inson faoliyati bois ro'y bermoqda. Globallashuv jarayonlarida juda ko'p miqdorda uglevodorod qazilma yoqilg'ilar (ko'mir, neft, tabiiy gaz)ning yonishi issiqxona gazi hisoblangan karbonat angidrid va azot oksidi gazlarining atmosferaga chiqarilishiga sabab bo'ladi. Ayrim mintaqalarda harorat xavfli darajada ko'tarilib ketishi, boshqalari esa dengiz sathi ko'tarilishi sababli yashab bo'lmas holatga kelishi mumkin. Ob-havoda keskin o'zgarishlar – anomal issiq yoki sovuq, jala va bo'ronlar tez-tez kuzatila boshlaydi, hayot va turmushga xavf soladi.

– Kuz-qish fasllarida qanday ob-havo kutilmoqda?

– Bu yilgi kuz-qish mavsumi, oxirgi 10 yillikni tahlil qilib ko'rganimizda, 2021-yil holati bilan juda o'xshash. Ya'ni, yozda issiq, qurg'oqchilik kuzatilgandi. O'sha yili 4–7-noyabr kunlari chang bo'roni ham bo'lgan edi. Bu yil ham shunga o'xshash ob-havo kuzatilishi mumkin. Kuzning dastlabki oylarida issiq harorat, chang havo kutilyapti. Lekin shuni aytib o'tishim kerakki, oktyabr oxiri – noyabr boshlarida havo qattiq sovushi mumkin. Yog'ingarchilik miqdori me'yoridan kam bo'ladi. Qish oylarida ham qattiq sovuq kutmaymiz.

– Markaziy Osiyoda chang miqdori sezilarli darajada ortdi. Bu ham mavsumga bog'liqmi yoki u davomli bo'lishi mumkinmi?

– Tabiat chegara bilmaydi. Global iqlim o'zgarishlari bir davlatdan boshqasiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Qozog'iston, Turkmaniston va Afg'oniston hududlarida global iqlim o'zgarishi ta'sirida yomg'ir miqdori keskin kamaygani, suv havzalari qurishi fonida sug'oriladigan yerlarning degradatsiyaga uchrashi sababli cho'llanish avj olib, kuchli bo'ronlar sodir bo'lmoqda va qum-chang ko'tarilib, O'zbekiston hududiga kirib keldi.

O'zbekistonning g'arbiy (Buxoro) va janubiy (Qashqadaryo va Surxondaryo) viloyatlariga esa Turkmaniston va Shimoliy Afg'onistonning (Afg'on shomoli) cho'l hududlaridan qum va chang kirib kelishi tashqi omillar hisoblanadi.

Mamlakatda cho'llanish va yaylovlar degradatsiyasining avj olishi, qurilish maydonlari sonining ortishi natijasida shamol fonida unda chang va qum zarrachalarining havoga ko'tarilishi, atmosferaga sanoat korxonalari va avtomashinalar tomonidan zararli tutunlarning chiqarilishi esa ichki omillar sanaladi.

– Oxirgi paytlarda aholi salomatligiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi magnit bo'ronlari ham ko'p sodir bo'lyapti...

– Quyosh sirtida sayyora-miz o'lchamidan ham bir necha barobar katta dog'lar kuzatiladi. Bu dog'lar har 11 yilda Quyoshda ro'y beradigan tabiiy sikl – yulduzning koinotdagi «ob-havo»ga ta'sir o'tkazuvchi faolligini bildiradi. Qora dog'lar quyosh chaqnashlariga sabab bo'ladi, chaqnash tufayli toj-simon otilishlar sodir bo'ladi. Natijada Quyoshni o'rab turgan fazoga magnit zarrachalaridan iborat bulutlar ajralib chiqadi. Quyosh chaqnashlarining nurlanishi ham Yer magnit maydoni ishiga ta'sir o'tkazadi – uning junbushga kelishi bir necha soatdan bir necha sutka davom etadigan geomagnit bo'ronlarga sabab bo'lishi mumkin. Magnit bo'ronlari bir vaqtda Yer yuzining yirik maydonlarida kuzatiladi va ko'pchilik buni his qiladi. Bunday vaqtda turli yoshdagi insonlarda uyqusizlik, tushkun kayfiyat yoki asabiylik kuzatiladi.

Muntazam jismonan faol bo'lish, sog'lom va foydali mahsulotlarni iste'mol qilish, toza havoda sayr qilish, uyquga to'yish va stressni boshdan o'tkazmaslik kabi omillar magnit bo'ronlarining salbiy ta'sirini kamaytiradi va unga chidamli bo'lishga zamin yaratadi.

Madina QAHHOROVA
suhbatlashdi.



lakat turli havo oqimlarining kirib kelishi uchun juda qulay hudud hisoblanadi.

– Kuzatilayotgan issiq ob-havo aholi salomatligiga qanday ta'sir qiladi?

– Global isishning kuchayib borishiga moslashish tobora qiyinlashib bormoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, dunyoda 3,6 milliard kishi iqlim o'zgarishiga yuqori darajada duchor

bloklab qo'yadi. Natijada uyqu buziladi. 2018-yildan buyon aholi o'rtasida o'tkazilayotgan so'rovnomalar shuni ko'rsatadiki, 70 foiz odam issiq ta'sirida kechqurun kam uxlaganini bildirishgan. Bu inson sog'lig'i uchun juda yomon holat. Kam uyqu ertangi kungi tetiklikning yo'qolishi, mehnat samaradorligi pasayishiga olib keladi. Yana boshqa turli kasalliklarni ham keltirib chiqaradi.



Семинар

Как решаются вопросы предупреждения семейного насилия?

В Самарканде Верховный суд Республики Узбекистан организовал семинар на тему «Профилактика семейно-бытового насилия и преступлений сексуального характера: проделанная работа, существующие проблемы, пути их решения и будущие задачи».



В мероприятии приняли участие судьи, сотрудники прокуратуры и органов внутренних дел, заместители хокимов области, городов и районов по вопросам семьи и женщин, представители Национального агентства социальной защиты. На семинаре рассмотрены меры по предупреждению семейного насилия, анализ проделанной ра-

боты и предстоящие задачи.

В начале участникам был представлен видеоролик о роли женщины в семье и обществе, правах и защите детей от насилия. Подчеркивалось, что в Узбекистане права женщин и детей под надежной защитой государства. Исполняющий обязанности председателя областного суда

Т. Бойзоков отметил, что каждая семья в стране находится под особой заботой государства, акцентировал внимание на нормах законодательства и последних изменениях, направленных на укрепление защиты прав женщин и детей.

Судья Верховного суда М. Абабакиров поделился практическим опытом рассмотрения подобных

дел, остановился на процессуальных действиях в ходе дознания и следствия, привел статистические данные, обозначил успехи и существующие проблемы. Он подчеркнул необходимость тесного взаимодействия судов, прокуратуры и органов внутренних дел.

Заместитель хокима города Самарканда – начальник городского отдела

по делам семьи и женщин Р. Тошниёзова отметила значимую роль женских комитетов и активистов в профилактике семейного насилия. Она рассказала о проводимой работе в махаллях по созданию здоровой моральной атмосферы в семьях, подчеркнула эффективность сотрудничества с «махаллинской семеркой», правоохранительными органами и общественностью.

Своими предложениями также поделились судьи областного суда, сотрудники прокуратуры, УВД области и Национального агентства социальной защиты. В завершение семинара были выработаны конкретные рекомендации и определены меры, направленные на усиление профилактики правонарушений и преступлений в сфере семейных отношений.

Нигора ЁДГОРОВА,
подполковник.

В образовательных учреждениях МВД

В НАЧАЛЕ ПУТИ

Учебный год для первокурсников Академии МВД Узбекистана традиционно начинается с интенсивных сборов, которые проходят на базе учебно-полевого центра МВД.



Новобранцы адаптируются к коллективу, строгой дисциплине, начинают осваивать специальные предметы. Особое внимание уделяется воспитательной работе. Ведь для службы в органах правоохраны важны не только знания, но и высокие моральные качества.

Недавно здесь прошло мероприятие «Встреча трех поколений». В нем приняли участие представители руководства Академии, строевые офицеры, педагоги.

Выступая перед курсантами, генерал-майор в отставке Тохир Муллажонов акцентировал внимание на реформах, осуществляемых в системе



ОВД, мерах, направленных на дальнейшее повышение эффективности их деятельности. Он подчеркнул, что служба в органах внутренних дел – призвание, требующее максимальной самоотдачи.

В ходе беседы курсанты получили ответы на интересные вопросы, осознали ответственность, возлагаемую на них.

Радик ТУМΠΑРОВ,
соб. корр.

Самаркандская область

Любитель легких денег



Фарид (имя изменено) недавно устроился уборщиком в международный аэропорт Самарканда. Вчерашний безработный вскоре понял, что получаемая заработная плата его не устраивает. Стремление увеличить доход – вполне естественное желание, особенно если зарплата невысокая. Но новоиспеченного сотрудника интересовали не подработки или карьерный рост – он начал присматриваться к возможностям легкой наживы.

Мысль о быстром обогащении не давала ему покоя. В один из рабочих дней Фарид намеренно задержался на смене, якобы продолжая выполнять служебные обязанности. Дождавшись темноты, он похитил три емкости с авиационным турбинным маслом.

Однако уйти незамеченным злоумышленнику не удалось. В результате он был задержан с поличным.

Зухриддин САРИЕВ,
капитан.



MA'RIFAT BO'STONI



**Munavvar qori
Abdurashidxonov**

TO'G'RILIK

To'g'ri so'zlik bolalarni har kim yaxshi ko'rar. Kundan kung'a darajasi va obro'si ortar. Har kim oldida so'zi maqbul va o'zi e'tiborlik bo'lur. Ulug'-ulug' xizmat va o'rinlarga loyiq ko'rurlar. Bora-bora qo'lig'a zo'r-zo'r ishlar topshirilur. Yolg'onchi bolalar esa bu ne'mat va bu davlatlarning barchasidan quruq qolurlar. To'g'ri bolalardan janob Haq taolo ham rozi bo'lur. Shul sababli har bir so'zda to'g'rilik ila harakat qilmoq lozimdur. So'zda to'g'rilik esa yolg'on so'z so'zlamaslikdur.

ORIF ILA SODIQ

Bir kun Orif ila Sodiq ikkisi o'ynashub, maktabning devoriga osilg'on soatni sindirdilar. Muallim afandi Orifni chaqirib: «Soatni kim

sindirdi?» – deb so'radi. Orif to'g'ri so'zlik bir bola edi. Shuning uchun «Sodiq ila ikkimiz o'ynashub sindirdik, gunohimizni kechirsangiz edi, afandim!» – deb to'g'ri javob berdi.

Muallim afandi Sodiqni chaqirib: «Soatni nima uchun sindirdingiz?» – deb so'rag'anida, Sodiq: «Taqsir! Man yo'q edim. Orifingiz sindirgan», – deb tondi. So'ngra boshqa bolalarning guvohliklari ila muallim bildiki, Orifning so'zi chin ekan, soat sindirganlarning biri Sodiq ekan. Muallim Orifga qarab: «O'g'lim Orif, to'g'ri so'zlaganing uchun saning gunohingni kechirdim, bundan keyin ehtiyot bo'!» – dedi. So'ngra Sodiqga boqub: «Yolg'onchi Sodiq! San ham to'g'ri javob bersang edi, gunohingni kechurar edim. Endi yolg'on so'zlaganing uchun bir kun maktabda taomsiz qolursan. Ham soatning yarim bahosini to'laysan» – dedi.

Orif to'g'ri so'zladi, qutuldi. Sodiq yolg'on so'zladi, tutildi.

ROSTGO'YLIK MANZILI

Qadim zamonda suv, shamol va rostgo'ylik do'st bo'lishgan ekan. Bir kuni suv bilan rostgo'ylik shamoldan so'rashibdi: «Ey shamol, sen juda tez uhasan. Agar seni topmoqchi bo'lsak, qayerdan qidiraylik?» Shamol: «Meni tog'lar orasidan topasiz», debdi. Keyin shamol bilan rostgo'ylik suvdan so'rashibdi: «Sen juda tez oqasan, agar seni qidirsak, qayerdan topamiz?» «Meni abadiy muzliklardan izlang», debdi suv. Keyin shamol va suv rostgo'ylikdan so'rashibdi: «Rost-

go'ylik, seni-chi, agar qidirsak, qayerdan topamiz?» Rostgo'ylik debdi: «Men kimning yonida bo'lsam, undan ajralmayman. Meni tark etganlarni yomon ko'raman. Agar meni yo'qotgan qayta topmoqchi bo'lsa, yuragining tubidan izlasin, lekin u yerga yetish juda mushkul».

Ey farzand, bilginki, rostgo'yligini yo'qotgan odamning qalbi tog'lar orasiday chuqur va abadiy muzliklarday sovuq bo'ladi.

«Tarbiya» kitobidan olindi.

«SO'NGGI O'Q»NING TUG'ILISHI

Xalqimizning sevimli adibi Tohir Malik o'zining betakror asarlari bilan adabiyot muxlislari qalbidan mustahkam joy olgan. Adibning «So'nggi o'q» romanini o'qib bo'ldim-u, xayolimda asar voqealari charx urib, bezovta qilardi. Oxiri bir kuni qadrdon do'stinga qo'ng'iroq qilib:

– Yodgor aka, men hozir Tohir Malikning «So'nggi o'q» kitobini o'qib chiqdim. Siz ham shu kitobni o'qib ko'ring. Asar asosida videofilm suratga olinsa, juda zo'r ish bo'lardi. Kitobda tasvirlangan sahnalarni tashkil qilishda yordam beraman. Umuman, mendan qanday ko'mak kerak bo'lsa, so'rayverasiz. Juda dol-

Zokirjon ALMATOV



chiqadi, – deb unga dalda berib qo'ydim.

Ichki ishlar idoralarining faoliyati bilan bog'liq sahnalar bo'yicha o'zim ham, qolaversa, IIV mutaxassislari ham maslahat berib turdik.

– Videofilm suratga olib bo'lingandan keyin, xodimlarimiz rollarini ijro etgan aktyorlarni bemalol xizmatga qabul qilsak ham bo'ladi, – deb hazil aralash san'atkorlarning ko'nglini ko'tarib qo'ydim.



zarb mavzu ekan. Film ko'pchilikka manzur bo'ladi, – dedim.

Taklifim Yodgor Sa'diyevga ma'qul keldi. Senariy yozib berishni adibning o'zidan iltimos qildim. Tohir Malik darhol rozi bo'ldi. Shunday qilib, Yodgor aka ishga kirishib ketdi. Murakkab sahnalar, qamoqxona, militsiya idoralari uchun joy tanlandi. Bu borada barcha sharoitlarni yaratib berdim. Suratga olish jarayonlari boshlangach:

– Ko'rasiz, videofilm zo'r

– Bizning ishimiz ham militsiyani-
nikidan kam emas, – deb bo'sh
kelmasdi Yodgor Sa'diyev.

Videofilmni suratga olish jarayoni 1994-yilda to'la tugallandi. Televideniya orqali namoyish etilgan videofilm tomoshabinlar o'rtasida munosib e'tirofga sazovor bo'ldi.

– Ana, men sizga aytgandim, zo'r videofilm bo'ladi, qoyil qildinglar, – deb do'stimni chin ko'ngildan tabrikladim.

Husan Ermatov

SOKIN DARYO MAVJLARI

Kim kimga nimani o'rgatyapti?

Treninglar o'tkazishyapti, yaxshi, lekin ularning mavzulari odamni o'ylantiradi. Jurnalistlar o'rtasida «Maqola qanday yoziladi?», «Felyetonning rang-barang va ta'sirchan qirralari», «Intervyu janrining imkoniyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?», «Xabar bilan axborotning farqi» kabi oddiy, ammo jurnalistman degichlarning ko'pining bilim xaltasida yo'q narsalarni o'rgatinglar, sizlar qo'yayotgan mavzularni ba'zida vazir ham amalga oshira olmaydi, tushunishni-ku qo'ying, o'zlaring ham nimaligini mukammal bilishlaring dargumon... Uzr-u...



ФАХРИЙЛАР – ФАХРИМИЗ

ХАЙРЛИ ИШЛАРГА БОШ-ҚОШ

Самарқанднинг Пахтачи туманида туғилиб, вояга етган истеъфодаги сержант Шамсиддин Шайманов чорак асрдан буён Навоий вилоятининг олис Учқудуқ туманида истиқомат қилади. У ички ишлар органларида, хусусан ППХ бўлинмаларида кечган узоқ йиллик фаолиятдан сўнг ҳам халққа хизмат қилишда давом этяпти.

Пенсияга чиққач ҳам ундан маслаҳат ва муаммоларига ечим сўраб келади-ганларнинг кети узилмади. Барча учун бирдек манфаатли ташаббуслари фуқаролар кўнгилдан жой ола бошлади. Шунинг учун бўлса керак, пандемия даврида уни Абай маҳалласи раиси этиб сайлашди.

Мазкур маҳаллада қарийб 6600 нафар ўзбек, қозок, қорақалпоқ, рус, татар, тожик ва яҳудий миллатларига мансуб аҳоли истиқомат қилади. Табиийки, турли

тил ва урф-одатга турфа миллат вакилларининг ўзаро аҳил-иноқ яшаётганида Шамсиддин аканинг ҳиссаси катта.

Кимнингдир хонадонида маслаҳатли иш ёки ечимталаб муаммо бўлса, биринчи бўлиб у билан боғланишади. Бекорчи ёки қадам босиши бежо ёшлар билан эринмай суҳбатлашади, уларга йўл-йўриқ кўрсатади. Худудий профилактика инспектори, катта лейтенант Достон Намозовга маслаҳат, тавсиялар бериб боради.

Оқсоқолнинг бошчилигида маҳаллада қатор хайрли ишлар амалга оширилди, Жумладан, кўчаларга ёриткичлар ўрнатилди, эҳтиёжманд оилаларга ёрдам кўрсатилди, ёшлар учун кўплаб спорт мусобақалари ва маданий тадбирлар ташкил этилди.

– Юртга хизмат қилиш фақат формали ходимларгагина хос эмас. Мен учун элга хизмат — одамларнинг оғирини енгил қилиш йўлида фидойилик кўрсатишдир. Бу иш эса ёш, миллат ва касб танламайди. Шунинг учун ёшларга илм олишдан тўхтаманг, меҳнатдан қочманг дейман, кексаларни ҳам баҳоли қудрат маҳалламизнинг тинчлик-осойишталигини таъминлашга ҳисса қўшишга чақираман, – дейди Абай номидаги маҳалла

фуқаролар йиғини раиси Шамсиддин Шайманов.

Бундан бир неча йиллар бурун низоли оилалар, спиртли ичимликка ружу қўйганлар анчагина эди. Маҳалла оқсоқоли бошчилигида профилактика инспектори, ёшлар етакчиси, хотин-қизлар фаоли, ижтимоий ходим биргаликда хонадонларнинг муаммоларини бирма-бир ўрганишди. Ажрим ёқасидагилар яраштирилди, корхона ва ташкилотлар билан ҳамкорликда ишсизларнинг бандлиги таъминланди. Моддий кўмакка муҳтожлар учун

нафақа тайинланишига эришилди.

Айни пайтда маҳалла етилиги якка-ёлғиз истиқомат қилаётган кексалар, беморлар ва ногиронлиги бўлган шахслар ҳолидан мунтазам хабар олиб турибди. Қолаверса, кенг жамоатчиликни бундай хайрли амалларга жалб этишяпти. Ана шу ишларнинг бошида маҳалладаги кексаю ёш бирдай номини доимо ҳурмат билан тилга оладиган Шамсиддин Шайманов турибди.

Маҳлиё ХОЛОВА,
ўз мухбиримиз.

Навоий вилояти.

(Газетанинг 1-саҳифасидаги суратда: Учқудуқ тумани Абай номидаги маҳалла фуқаролар йиғини раиси Шамсиддин Шайманов профилактика инспектори, катта лейтенант Достон Намозов, туман ИИБ бошлиғи ўринбосари, капитан Азизбек Эргашев, ёшлар етакчиси Севдиёр Вассиев ҳамда хотин-қизлар фаоли Фарида Пирматова билан).

ИНСОН ҚАДРИ УЧУН

ҲАР БИР МУРОЖААТ ЭЪТИБОРДА

Президентимиз томонидан илгари сурилган «Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халқимизга хизмат қилиши керак» деган эзгу тамойил бугунги кунда юртдошларимизнинг ҳаётдан рози бўлиб яшашини таъминламоқда.



Бугун халқ дарди билан яшаш, уларнинг муаммоларини ҳал этиш барча давлат идора ва ташкилотлари олдидаги бирламчи вазифага айланган. Ушбу вазифани бажаришга ички ишлар органлари ҳам муносиб ҳисса қўшиб келаётганлигини таъкидлаб ўтиш ўринли бўлади. Сабаби, тинчлик-осойишталик замирида ҳам энг аввало фуқароларнинг ҳақ-ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ҳимоясининг таъминланганлиги туради.

Хусусан, Қорақалпоғистон Республикаси Ички ишлар вазирлигига жорий йилнинг ўтган даври мобайнида 6 минг 600 тадан ортиқ мурожаат келиб тушган. Ушбу мурожаатларнинг 4169 таси қаноатлантирилган, 1801 таси бўйича эса ҳуқуқий тушунчалар берилган. Шунингдек, 22 та мурожаат такрорий равишда бўлгани боис тугатилиб, 637 та мурожаат айни пайтда кўриб чиқиш жараёнида.

Мисол учун, Кегейли туманида яшовчи фуқаро К. Жумамуратов-

нинг оилавий шароити қийинлиги туфайли ID-карта олишда ёрдам сўраб қилган мурожаати ўрганиб чиқилиб қаноатлантирилди. Нукус шаҳрида яшовчи Д. Ҳошмуратов ўз мурожаатида пробацация ҳисобида назоратда турганини, ҳозирги кунда ўзига тегишли хулоса чиқариб, тўғри йўлга тушганини баён қилган. Шу боисдан муддатидан олдин жазодан озод этилишини сўраган. Мазкур мурожаат ҳам ўрганиб чиқилиб, уни муддатидан олдин жазодан озод этиш бўйича судга тақдимнома киритиб, суд томонидан қаноатлантирилди.

Албатта, ҳеч бир мурожаатга бефарқ бўлиш керак эмас. Чунки унинг ортида қайсидир инсоннинг дарду ташвиши, ҳақ-ҳуқуқи, шаъни, қадр-қиммати туради. Шуни инобатга олган ҳолда вазирликка келиб тушган мурожаатларга ўз вақтида имкон даражасида ижобий ечим топишга алоҳида эътибор қаратилган.

Ушбу кунга қадар келиб тушган мурожаатларни таҳлил қилиб қарайдиган бўлсак, уларнинг аксарияти мол-мулк, йўл ҳаракати хавфсизлиги, тергов ва суриштирув ишлари, фуқаролик ҳужжатини олиш, пластик картадан пул ўғирланиши ҳамда оилавий низолар бўйича эканлигини кўришимиз мумкин. Шунинг ҳам айтиб ўтиш лозимки, жорий йилда келиб тушган мурожаатлар ўтган йилдагига нисбатан

урожаатлар билан ишлаш гуруҳи бош инспектори, полковник Полат Ешанов.

Бундан ташқари, Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгесининг «Халқ мурожаати» платформасидан 59 та мурожаат келиб тушган. Шундан 36 таси қаноатлантирилган, 14 таси бўйича ҳуқуқий тушунтириш берилган. Қолганлари кўриб чиқилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг



4,7 фоиз камайган. Бу ўз навбатида мурожаатлар билан ишлашга масъулият билан ёндашиб, масалалар ечими топилаётганидан дарак беради.

– Ҳар ҳафта якшанба куни алоҳида тасдиқланган режа асосида Ички ишлар вазирининг шахсий қабули ташкил этиб келинади. Айни пайтга қадар ўтказилган қабуллар давомида 290 дан ортиқ мурожаатлар кўриб чиқилиб, уларнинг 58 фоизи ижобий ечимини топди, – дейди Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ Ташкилий бошқармаси Му-

Виртуал ва Халқ қабулхоналари орқали келиб тушган 2 мингдан ортиқ мурожаатнинг 1300 дан зиёди ижобий ечим топган.

Хулоса тариқасида айтидиган бўлсак, аҳоли билан очиқ мулоқотнинг йўлга қўйилиши долзарб муаммоларни аниқлаш, мурожаатларнинг ўз вақтида ҳал этилишини таъминлашда самарали йўл бўлиб келмоқда.

Азамат ПИРНИЯЗОВ,
ўз мухбиримиз.

Қорақалпоғистон Республикаси.



ПРОФЕССИОНАЛ РАХБАР КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ЙЎЛИДА

Президентимиз раҳбарлигида амалга оширилаётган кенг кўламли ислохотлар, аввало, ҳар бир раҳбардан юксак масъулият, садоқат, замонавий билим, шижоат ва ҳалоллик билан ишлашни талаб этмоқда. Зотан, Янги Ўзбекистондаги янгиланишлар суръати ва кўлами, белгиланган вазифаларнинг самарали амалга оширилиши кўп жиҳатдан барча бўғиндаги раҳбарларнинг салоҳияти ва маънавиятига боғлиқдир.

Ички ишлар органларининг бошқарув кадрлари, авваламбор, дунёқараши кенг, истиқболни тасаввур қила оладиган, ташкилотчи, иродаси мустаҳкам, муваффақият сари интилувчи ва жавобгарликни ўз зиммасига олишга қодир раҳбар бўлмоғи лозим.

Маълумки, тизим учун мутахассислар тайёрлашнинг мутлақо янги тизимини жорий этиш, ходимларнинг малакасига қараб хизмат бўйича ўсишини таъминлаш, шунингдек, куч ва воситаларни самарали бошқаришда раҳбар кадрларнинг интеллектуал ва профессионал салоҳиятини янада ошириш мақсадида Ички ишлар вазирлиги Академиясида кадрларни тайёрлаш жараёнига бакалаврият ва магистратуранинг ўз ичига олувчи икки босқичли олий таълим тизими жорий этилди. Академияга ички ишлар органлари учун юксак касбий маҳорат, интеллектуал салоҳият ва юқори профессионал билим даражаси-

раҳбар» тайёрлашга ихтисослашган модулли ўқитиш тизими жорий қилинди.

Замон талабларидан келиб чиқиб, ўқув режаларига «Куч ва воситаларни бошқариш ҳамда мувофиқлаштириш», «Бошқарув фаолияти ва раҳбарлик санъати», «Ички ишлар органлари фаолиятини рақамлаштириш ва сунъий интеллект технологияларини жорий этишни ташкил этиш», «Ички ишлар органларида киберхавфсизликни таъминлаш ва кибержиноятларга қарши курашиш фаолияти», «Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданияти ва хизмат интизоми кодекси» каби қўшимча фанлар киритилди.

Тингловчиларнинг бошқарувга оид билим ва амалий кўникмаларини ривожлантириш мақсадида Ички ишлар вазири ўринбосарлари, вазирлик соҳавий хизматлари раҳбарлари ҳамда Академия раҳбарияти томонидан машғулотлар ўтказилди. Тингловчиларда раҳ-



Республикасида малака оширди.

Бундан ташқари, хорижий давлатларнинг малакали мутахассислари томонидан тингловчиларнинг бошқарув кўникмаларини оширишга оид мастер-класс машғулотлари ўтказилди. Шунингдек, Россия Федерацияси ИИБ Бошқарув академиясининг тажрибали профессор-ўқитувчилари томонидан «Бошқарув қарорларини қабул қилиш ва ижросини ташкил этиш», «Ички ишлар органларида бошқарув қарорлари», «Ходимларни бошқаришда кадрлар технологиялари», «Ички ишлар органлари фаолиятини ташкил этишнинг маъмурий-ҳуқуқий тартибга солиниши» мавзуларида онлайн машғулотлар ўтказилди.

Тингловчилар амалиёти Ички ишлар вазирлиги соҳавий хизмат бошлиқлари, ҳудудий ҳамда туман (шаҳар) ички ишлар органлари раҳбарларининг бевосита мураббийлигида барча ўқув модуллари якуни бўйича ташкил этилди. «Ташкилий-стратегик бошқарув» мутахассислиги тингловчилари вазир ўринбосарлари,

соҳавий хизмат раҳбарлари ҳамда ҳудудий ички ишлар органи бошлиқларига, «ташкилий-тактик бошқарув» мутахассислиги тингловчилари Тошкент шаҳар туманлари ИИОФМБ бошлиқларига бириктирилди.

Тингловчиларнинг замонавий ахборот коммуникацион ва рақамли технологиялардан фойдаланиш ва кибержиноятларга қарши курашишга оид билимларини ошириш учун Тошкент шаҳридаги Инха университетида, Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университетида,

Мудофаа вазирлиги Ахборот-коммуникация технологиялари ва алоқа ҳарбий институтида қисқа муддатли ўқув машғулотлари ўтказилди. Шунингдек, тингловчилар Тошкент шаҳри ва вилоятидаги олий таълим муассасаларига бириктирилиб, талабалар ўртасида ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш ва унинг профилактикасига кўмаклашиши ташкил этилди.

Бундан ташқари, тингловчиларнинг назарий билимларини амалий жиҳатдан мустаҳкамлаш мақсадида 2024/2025 ўқув йилида Олий Мажлис Сенати ва Қонунчилик палатасида, ИИБ соҳавий хизматлари, ички ишлар бўлимлари ҳамда замон талаблари асосида ташкил этилган ситуацион марказларида 40 маротаба сайёр машғулотлар ўтказилди. Шунингдек, улар Олий Мажлис Қонунчилик палатаси ва Сенатида кўриб чиқилаётган ички ишлар органлари фаолиятига оид қонун лойиҳалари муҳокамаларида 15 маротаба иштирок этиб, амалиётдаги муаммолардан келиб чиққан ҳолда, таклифлар бериш ва муҳокама қилиш орқали ўз билимларини янада мустаҳкамлашди.

Таъкидлаш жоизки, 2022/2024 йилларда магистратуранинг таъминлаган 316 нафар битирувчининг 295 нафари ёки 93,3 фоизи қуйи, ўрта ва юқори бўғиндаги раҳбарлик лавозимларида хизмат қилиб келмоқда.

Куни кеча яна 56 нафар битирувчи Академия магистратурасини муваффақиятли тамомлаб, диплом ва кўкрак нишонига эга бўлди. Ишончимиз комилки, улар ҳам ўз издошлари каби, юртимизда тинчлик ва хавфсизликни таъминлашга ўзларининг муносиб ҳиссасини қўшишади.

Баҳром САИДОВ,
ИИБ Академияси Магистратура
бошлиғи, полковник, юридик
фанлар доктори, профессор.



га эга бўлган, маънавий-ахлоқий жиҳатдан етук, фаолиятни ташкилий-тактик ва стратегик жиҳатдан бошқаришга қодир раҳбар кадрларни тайёрлаш вазифаси юклатилди.

Магистратурада таълим жараёни хизматдан ажралган ҳолда ташкил этилиб, ички ишлар органлари бошлиқлари ва уларнинг барча ўринбосарлари фаолиятига доир зарур касбий билимларни эгаллаш ҳамда малакавий амалиётда уларни самарали қўллаш кўникмаларини мустаҳкамлашга йўналтирилган «универсал

барлик маҳоратини юксалтириш мақсадида 2024/2025 ўқув йилида машғулотларга 120 нафар давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари раҳбарлари жалб этилди.


Тингловчиларнинг раҳбарлик кўникмаларини ривожлантириш мақсадида хорижий давлатларда қисқа муддатли ўқув курслари ташкил этилди. 2021–2025 йилларда 81 нафар тингловчи Туркияда, 64 нафари Хитой Халқ Республикасида, 21 нафари Россия Федерациясида, 18 нафари Корея Республикасида, 25 нафари БААда ва 1 нафари Қозоғистон

ТЕПКИ: АСОРАТЛАРИ ВА ОҚИБАТЛАРИ

Эпидемик паротит – (тепки) ўткир юқумли касаллик бўлиб, сўлак безлари, ошқозонности беи, мояклар ва марказий асаб тизимининг йирингсиз зарарланиши билан кечади.

Тепки касаллиги 3 ёшдан 15 ёшгача бўлган болаларда кўп учрайди. У аломатлари ўзини намоён қилмасидан 9 кун олдин ва бошланганидан кейин 5–9 кун давомида инфекцияланган бемордан ҳаво-томчи йўли орқали юқади. Яширин даври эса касаллик юқанидан сўнг хасталик аломатлари ривожланишига қадар бўлган вақт оралиғи 11–23 кунни, кўпинча 13–19 кунни ташкил қилади.

Безовталиқ, мушак оғриғи, бош оғриғи, ваража қилиш, иштаҳа ва уйқунинг бузилиши тепкиннинг белгилари саналади. Касаллик ривожланиши билан аломатлар кучаяди. Хусусан, сўлак безлари шикастланиши, оғиз қуруши, чайнаш, гаплашиш вақтида қулоқ атрофида оғриқ зўрайиши кузатилади. Касаллик оғир кечганда менингит, менингоэнцефалит, панкреатит, орхит, мастит, миокардит, артрит ва нефритга сабаб бўлиши мумкин.



Касаллик энгил кечса, иситма, интоксикация белгиларисиз ёки заиф белгилар билан, асоратларсиз кечади. Ўртача кечганда эса тана ҳарорати 38–39,9 даражага кўтарилади, юқори ҳарорат узоқ муддат сақланиб туради, бош оғриғи, артралгия ва миалгия кузатилади. Сўлак безлари сезиларли даражада катталашади, кўпинча икки томонлама паротит ҳосил бўлади.

Тана ҳароратининг 40 даража ва ундан юқори бўлиши, мазкур ҳа-

ролатнинг 2 ҳафтагача ёки ундан кўп сақланиб туриши, астения, оғир заифлик, тахикардия, қон босимининг пасайиши, уйқу бузилиши ва анорексия касаллик оғир кечаётганини билдиради. Ёнг ёмони, тепки мояк атрофияси, бепуштлиқ, қандли диабет, карлик ҳамда марказий асаб тизими дисфункциясини келтириб чиқаради.

Касаллик энгил кечганда беморларни уй шароитида даволаш мумкин. Беморлар тураржойда 9 кунга изоляция қилина-



ди. Хасталик аниқланган болалар муассасаларида 21 кун карантин белгилади. Паротит ўчоқларида дезинфекция амалга оширилмайди.

Ётоқ тартибига амал қилмаслик касаллик асоратларини кучайтиради. Тепки асорати бўлган панкреатитнинг олдини олиш учун парҳезга риоя қилиш керак: ортиқча емакдан қочиш, оқ нон, макарон, ёғли таомлар, карам истеъмолини камайитириш зарур. Таомномада сут ва сабзавотлар бўлиши керак. Донлардан гуруч истеъмол қилган афзал, қора нон, картошка ейишга рухсат этилади.

Тепкига қарши эмлаш касалликнинг олдини олишнинг хавфсиз усули ҳисобланади. Аҳолининг эмлаш кўрсаткичи 90 фоиз бўлса, самардорлик 85 фоизга етади. Узоқ муддатли профилактика учун иккиланган дозани киритиш талаб этилади. Биринчи дозани киритиш 12–18 ойликда тавсия этилади. Иккинчи доза эса 2–6 ёшлик оралиғида ўтказилади.

Асадбек ИСМОИЛОВ,
Жиззах вилояти ИИБ
Тиббиёт бўлими СЭНМ
бошлиғи,
лейтенант.

ОРТИҚЧА ТУЗ – ЗАРАР

Шўр егуликлар соғлиқ учун ўта зарарли. Туз организмнинг тўғри ишлаши учун зарур бўлса-да, бироқ меъёридан ортиқ шўр маҳсулот ва таомларни истеъмол қилиш қон босимининг ошиши, семириш, юрак-қон томир касалликлари ва бошқа нохуш ҳолатларга олиб келиши мумкин. Шунингдек, бу организмда суюқлик ушланиб қолишига, натижада тана, айниқса, оёқ-қўллар шишишига сабаб бўлиб, буйрак ва юракка босимни орттиради. Бундан ташқари, туз ўрганиш ҳиссини пайдо қилиб, таъм билиш рецепторларини заифлаштиради, суяклардан кальций ювилиб чиқилишига сабаб бўлади.



Танада туз йиғилиб қолмаслиги учун кун давомида етарли миқдорда сув ичиш тавсия этилади. Шўр егуликлар қанчалик кўп истеъмол қилинса, шунча кўп сув ичиш зарур. Суюқлик тузни эритиб, буйрак орқали организмдан чиқариб юборади. Сарсабил, яшил баргли сабзавотлар, лавлаги ва пиёз

ҳам вужудимизда етаридан ортиқ туз йиғилиб қолишига тўсқинлик қилади.

Қон босимини меъёрга солиш ва организмдан ортиқча тузни чиқариб ташлашда муҳим роль ўйнайдиган буйракларни туз билан ортиқча юклаш уларнинг зарарланишига ва турли касал-

ликлар ривожланишига сабаб бўлади. Шўр таомлар ошқозон ва ичаклар шиллиқ қаватида зарар етказиши, бу эса гастрит ва овқат ҳазм қилиш тизими билан боғлиқ бошқа касалликлар юзага келишига олиб келиши мумкин. Баъзи тадқиқотлар кўрсатганидек, мунтазам шўр маҳсулотлар истеъмол қилиш ҳатто ошқозон саратони хавфини оширади.

Салбий оқибатларнинг олдини олиш учун туз истеъмолини чекланг. Мутахассисларнинг тавсиясига кўра, катталар учун кунлик туз миқдори 5 граммдан (тахминан 1 чойқошиқ) ошмаслиги ке-

рак. Озиқ-овқат маҳсулотларида, айниқса, ишлов берилган ва тайёр егуликларда туз қанча миқдорда қўшилганига эътибор қаратинг. Таом тайёрлашда ёки дастурхон атрофида унга қўшимча туз солмасликка ҳаракат қилинг. Яхшиси, овқатга маза бериш учун зираворлар, кўкатлар, лимон шарбати ва бошқа табиий қўшимчалардан фойдаланинг.

Жисмоний фаоллик орқали ҳам танани ортиқча туздан халос этиш мумкин. Инсон машқ ёки меҳнат қилар экан терлайди, натижада тер орқали тузлар ҳам чиқиб кетади. Бироқ улар билан бирга организмга зарур бўлган суюқлик, фойдали моддалар ва минералларни ҳам йўқотамиз. Шунини инобатга олган ҳолда, танани ҳар куни витамин ва зарур минераллар билан бойитиш ўта муҳим.

Ирода ШЕРГАЗИЕВА,
ИИБ Марказий поликлиникаси
эндокринолог-шифокори.

Ички ишлар вазирлиги раҳбарияти, шахсий таркиби ва Фахрийлар кенгаши Қашқадарё вилояти ИИБ бошлиғи, полковник Абдувоҳид Исмоиловга падари бузруквори

САЛОМ отанинг

вафоти муносабати билан ҳамдардлик билдиради.



★ А вы знали, что..?

ЖЕСТ «SIGNAL FOR HELP» СПАСАЕТ ЖИЗНИ

Жест «Signal for Help» – это скрытый способ попросить о помощи при насилии, не произнося ни слова. Он выполняется одной рукой: ладонь вперед, большой палец подгибается, затем четыре пальца накрывают его. Придуман Канадским женским фондом в апреле 2020 года, когда во время локдаунов резко выросло количество случаев домашнего насилия, а жертвам стало труднее обратиться за помощью напрямую. Идея – дать людям способ сообщить о беде в присутствии агрессора.

Жест означает: «Свяжись со мной безопасно». Это не автоматический призыв полиции – сначала нужно незаметно уточнить, нужна ли помощь, и как ее оказать, чтобы не подвергнуть человека большому риску.

Реальные примеры из разных стран.

● США (2021) – 16-летняя девушка показала жест водителю соседней машины, находясь с похитителем. Водитель вызвал службу спасения «911» и сопровождал авто до задержания преступника.

● Испания (2021) – женщина показала жест в больнице. Медперсонал понял сигнал, отвел в отдельное помещение, а полиция задержала ее партнера за домашнее насилие.

● Польша (2022) – во время онлайн-урока школьница показала жест. Учитель сообщил в полицию, девочку вывезли из дома, где происходило насилие.

● Австралия (2023) – пассажирка такси пока-



зала жест водителю. Тот отвез ее в полицейский участок, где выяснилось, что она пыталась сбежать от агрессивного партнера.

Увидев этот жест следует:

- не привлекать внимания агрессора;
- задавать вопросы «да/нет»: «Вам нужна помощь?», «Вызвать сотрудников ОВД?».

«Можем ли мы связаться позже?»;

● документировать сигнал и действия: время, место, кто заметил, что сделано.

Этот жест уже спас жизни в разных странах. Осведомленность и правильная реакция сотрудников ОВД могут сделать его еще более эффективным инструментом защиты.

Подготовила
Юлия ЧАЙКИНА.

СКАНВОРД

Сериал «Королева ...»	Коровий отход, дающий доход	Жертвенный ягненок				Полуфабрикат мужа	Что скрывается за дефицитом?	Научный способ морить голодом
			Королевская тюрьма Англии	У него не было тещи (анекд.)	Царь с ком-плексом			
Какого поэта бранил Онегин?	Смазка для жарки	Не муж, а просто Отелло!			Его плечо - Бетельгейзе	Куда впадает Бия?	Мера для землемера	
			Армянское средство связи	Обрушившие куэсты				
Хьюстон			Сотая часть фунта	Свойство любого клиента	Верх колонны			
	Потеря блесны в реке	Значимость аргумента					Дикий бык	
			Сказочный антипод добра	Ушлый знаток профессии	10 000 (устар.)	«Ни свет, ни ...»	Лисичка-крестная в сказках	
	Астроном Кеплер	Вторая книга Ветхого Завета			Шайка, но не банда			
			Черное топливо			Мясо в остром соусе		
	«Молодая лошадь, да ... старый»	Жокей			На его дорожке стояли 3 сосны			
Безусый парень			Скопище оговльцов			Река в Якутии		

МУНАЖЖИМЛАР БАШОРАТИ (25-31 август)



Қўй. Сиз учун бу ҳафта энг самарали давр бўлиб, фойдали ва истиқболли ишларга қўл урасиз. Қўзланган мақсадга эришиш учун янада фаол ҳаракат қилинг. Дам олиш кунлари меҳмонга боринг ёки табиат қўйнига сайрга чиқинг.



Бузоқ. Қанча кўп меҳнат қилсангиз, ҳам-касблар орасида шунча кўп ҳурмат ва эътиборга сазовор бўласиз. Барча саъй-ҳаракатларингиз мукофотини оласиз. Бироқ бу даврда оила аъзоларингизни ҳам унутиб қўйманг.



Эгизаклар. Сафарлар, саёҳатлар ва янги иш бошлаш учун қулай давр. Шунингдек, бу ҳафтада режалаштирилган муҳим иш учрашувлари муваффақиятли кечиби, бизнес ва шахсий ҳаётда кўпгина ижобий натижалар олиб келади. Ҳафта сўнгига режада бўлмаган харажатлар кузатилиши мумкин.



Қисқичбақа. Ҳафтанинг илк кунлари оилавий ва шахсий муносабатларни йўлга қўйиш учун омадли палла. Бироқ бу даврда маблағ сарфлаш тавсия этилмайди. Ҳафта сўнгига белгиланган режаларни амалга ошириш имконияти бўлмаса-да, ижобий тўлқинга мослашишга ҳаракат қилинг.



Арслон. Саломатлик ва ташқи кўринишга жиддий эътибор қаратинг, шунда кўтаринки кайфиятга ҳам эга бўласиз. Бу ҳафтада ортиқча сарф-харажатларни амалга ошириш тавсия этилмайди. Аксинча, айти дамда маблағ сарфлаш эмас, пул йиғиш лозим бўлади.



Паризод. Бу даврда режалаштирилган муҳим иш ва учрашувлар муваффақиятли кечади. Давр билан ҳамнафас бўлиб, мавжуд билимларни янгилари билан уйғунлаштиринг. Хизматдошлар учун умумий манфаатларни кўзловчи инсонга айланинг. Жиззакилик ва таъсирчанликни унутинг, фақат шундагина муваффақиятга эришингиз мумкин.



Тарози. Бу ҳафта катта даромадни ваъда қилмоқда. Яхшигина пул ишлаб олиш таклифи келиб тушса, бундай имкониятдан фойдаланиб қолинг. Яқинлар билан муносабатда одатдагидан мулоқимроқ ва меҳрибон бўлинг. Уларга айти дамда сизнинг қўллаб-қувватлашингиз жуда зарур.



Чаён. Ҳафта бошида кутилмаган қийинчиликлар юзага келиши мумкин. Соғлиққа эътиборли бўлинг, чунки шу кунларда жароҳат олиш ёки эски хасталикларнинг қайталаниши кузатилиши мумкин. Бу даврда маиший масалаларни ҳал этиш билан овора бўласиз. Ҳафтанинг сўнгги кунлари харидлар ва инвестициялар учун қулай пайт.



Ўқотар. Бегим кунлари салбий ҳолат ва муносабатларга таъсирчанлигингиз ортади. Асосий вазифа ва мажбуриятларингизни унутиб қўйманг. Уй ташвишлари, оилавий муносабатлар ҳаёлларингизни бутунлай қамраб олади. Нима бўлганда ҳам ўзингизни қўлга олиб, ҳаёт ва унинг ташвишларига хотиржамлик билан қаранг.



Тоғ эчкиси. Ҳафта ўрталарида иш ва оилада муайян муваффақиятлар кузатилиши кутилмоқда. Яқинларингиз билан мулоқот қилишда хушмуомалаликни унутманг, акс ҳолда кутилмаган тортишувлар келиб чиқиши мумкин. Салбий ҳиссиётлар саломатликка акс таъсир кўрсатади. Дам олиш кунлари мириқиб ухлаб олишга ҳаракат қилинг.



Қовға. Илк даврда кайфиятингиз тушиши, умид ва ишончингиз сўниши мумкин. Лекин чоршанба кунидан бошлаб янги лойиҳалар учун омадли онлар кириб келади. Ҳафта сўнгига иш фаолиятингиз ва молиявий масалаларга эътибор қаратинг. Ушбу палла ишбилармон одамлар ўз маҳсулотларининг хусусиятлари ва фойдали томонларини кўрсатиб бериши учун жуда қулай.



Балиқ. Бу ҳафта режадаги барча юмушларни ўз вақтида бажаришга урининг. Бироқ ишга киришишдан олдин унинг нечоғлик аҳамиятли ва фойдали эканини жиддий ўйлаб кўринг. Шунда ортиқча оворагарчиликнинг олдини олган бўласиз. Ҳафтанинг иккинчи ярми иш фаолияти билан боғлиқ келишувларни амалга ошириш учун мақбул вақт.



REPORTAJ

XONOBODDA «DUNYO SADOLARI»

Andijon zaminida tashkil etilgan «Dunyo sadolari» xalqaro estrada san'ati festivali bu yil uchinchi marotaba o'tkazilmoqda. Shu qisqa fursat mobaynida tadbirning dovruqi nafaqat yurtimiz bo'ylab, balki qo'shni davlatlarga ham taralib ulgurdi. Ayniqsa, o'zbek qo'shiqchilari bilan bir qatorda, mashhur dunyo yulduzlarining Andijon sahnalarida qo'shiq kuylashi tomoshabinlar e'tiborini yanada ko'proq jalb qildi.

Men ham xizmat vazifam taqozosi bilan tadbirning yakuniy kunida Xonobod shahri tomon yo'l oldim. Kun tushdan o'tgani uchun tadbirga ketayotgan mashinalar oqimi ko'paya boshlagan. Andijon – Xonobod yo'li tadbirga ketayotgan turli transport mashinalari bilan to'la. Shundanmi, harakatni tartibga solayotgan yo'l-patrul xizmati xodimlariga har qadamda ko'zingiz tushadi.

So'lim Xonobod shahriga yaqinlashganingizda bayram nafasini yanada teranroq his qilasiz. Odamlar gavjumlashgan hududlardan boshlab xavfsizlik kuchaytirilgan. Har qadamda jarayonlarni nazorat qilayotgan ichki

ishlar organlari xodimlari, ayniqsa, YPX hamda PPX xodimlariga duch kelasiz. Son-sanoqsiz mashinalar harakatini tartibga solishning o'zi bo'lmaydi, axir.

Asosiy kirish yo'lagiga o'rnatilgan metallodetektorlar yordamida fuqarolarini tekshiruvdan o'tkazayotgan ikki nafar ichki ishlar organlari xodimasidan birini savolga tutdim. O'zini Andijon viloyati IIB JXX JTSB PPX batalyoni otryad xodimi, safdor Nafosat Mamajonova deb tanishtirgan suhbatdoshim fikrlarini quyidagicha bayon qildi:

— Festival boshlangan kundan beri kunduzi 10:00 dan kech 00:30 gacha xiz-

mat vazifamizni amalga oshiryapmiz. Har kuni minglab tomoshabin kelyapti. Har bir fuqaroning tinchligi va xavfsizligini ta'minlash uchun yetarlicha ish tashkillashtirilgan. Hatto qo'shni viloyatlardagi hamkasblarimiz ham yordamga keldi. Odamlarning kayfiyati ko'tarinki. Xavfsizlik borasida yaratilgan shart-sharoitlar uchun rahmat aytib, o'z minnatdorliklarini bildirsa, charchoqlarimiz ham chiqib ketyapti.

Ko'cha yuzida turgan bir onaxon: «Qizim, meni ham suratga oling», deb qoldi. Biroz oldin shu yerda turgan YPX xodimlaridan biri onaxonning o'g'liga qo'ng'iroq qilib, qayerda turganini tushuntirgani qulog'imga chalingan edi. Onaxon beminnat yordami uchun o'sha xodimni yurakdan duo qildi. 77 yoshli bu ayol o'zgalarning hamrohligiga muhtoj bo'lsa ham, azbaroyi bayramni ko'rishga qiziqqani uchun maydonga kelaveribdi.



Katta maydon sari ketib borayotgan tomoshabinlar oqimidan hayratda qolasiz. Mazkur festivalga tashrif buyuruvchilar soni yildan-yilga ortib borayotganiga yana bir bor guvoh bo'ldik. Tadbirning oxirgi kuni ekanligi uchun tomoshabinlar soni har qachongidan ko'p. Tomosha maydoniga kirish hududidagi nazorat detektorlari oldida kinologiya xodimlariga ham ko'zimiz tushdi. Andijon viloyati IIB JXX JTSB Kinologiya bo'linmasi guruh komandiri, katta serjant Dilzodbek Abdinabiyevning ma'lumotiga ko'ra, 15 nafar kinolog xodim o'ziga biriktirilgan xizmat itlari bilan birgalikda tadbirga jalb etilgan. «Shukrki, festival tinch-osoyishta o'tmoqda. Hozircha bironta shubhali predmet aniqlangani yo'q», dedi u.

Tadbirga xavfsizlik choralari kuchaytirilib, nazorat ishlari yuqori darajada tashkil etilganini har qadamda atrofni sinchkovlik bilan kuzatayotgan ichki ishlar organlari xodimlarining xatti-harakatlaridan darhol payqaysiz. Viloyat IIB JXX JTSB PPXB otliq guruhi inspektorlari, Qo'riqlash departamenti motoyo'nalish xodimlari, tezkor vazifalarni bajaruvchi safarbar otryad xodimlari, profilaktika inspektorlari, xullas, ichki ishlar organlariga qarashli deyarli barcha

bo'linma hamda guruh xodimlari bayramning tinch va mazmunli o'tishi, aholining maroqli dam olib ketishi uchun xizmatga bel bog'lagan. Hech biri jarayonlarni ko'zdan qochirayotgani yo'q. Hammaning diqqat-e'tibori o'ziga biriktirilgan hududda. Eng quvonarlisi, tevarak-atrofdagi o'ynab-kulib, o'zlari uchun zavq yarata olayotgan bolakaylarga tabassum ila boqib turgan xodimlarning ko'zidagi mehrni ko'rib, ko'p narsalarni anglaysiz. Ular tadbirga kelgan har bir qorako'zning xavfsizligi uchun javobgarlikni his qilgan holda, hushyorlikni boy bermayapti. Yaqinlarning ko'zidan sal nari ketgan go'dakni darhol kuzatib, ota-onasining yoniga qaytarishga chog'lanadi.

Maydondagi atmosfera yuqori darajada. Xonanda Jaloliddin Ahmadaliyev, «Setora» guruhi, dunyoga mashhur eron qo'shiqchisi Arashning chiqishlari muxlislarga bir olam xursandchilik taqdim etdi. Taxminan 300 ming atrofidagi tomoshabin bitta sahna oldida birlashdi. Xonobodning sof havosi, go'zal tabiati uyg'unligida kechgan xalqaro festivalda ishtirok etgan har insonda bir olam taassurot uyg'ongani rost.

Nigora MIROLIM qizi.

Andijon viloyati.



MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir
o'rinbosarlari

podpolkovnik
Azizjon FAYZIYEV
mayor
Aziza BOHODIROVA

Mas'ul muharrir

Erkin SATTOROV

Veb-dizaynerlar

Ilhom JUMANOV
Akbar BOLTAYEV

Navbatchilar

Adolat FAYZIYEVA
Yuliya KIM

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari
bo'yicha:

71-231-38-74;
97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz
E-mail: info@postda.uz

ISSN 2010-5355



9 772010 535001

Tahririyat hisob raqami h/r
23402000300100001010.
Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va
moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v
470010860262877031101179001
STIR 200637499.

Gazeta O'zbekiston matbuot va
axborot agentligi tomonidan
2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam
bilan ro'yxatga olingan.

Manzilmiz: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

Buyurtma № 2249.
Bosilish – ofset usulida.
Bichimi – A3.
Hajmi – 6 bosma taboq.
44966 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.
Tashkilotlar uchun – 366.
Bosishga topshirish vaqti – 22.00.
Bosishga topshirildi – 21.00.
Sotuvda kelishilgan narxda.

«Kolorpak» MCHJ bosmaxonasida
chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1A-uy.